

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Sobirova Qambariso

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Xalq dostonlarida sovchilik marosimi
bilan bog'liq urf-odatlar badiiyati**

Ilmiy rahbar

f.f.n. F.Kiyikboev

Andijon 2014

Mundarija

I. Kirish.....	3
II. O'zbek marosim folklorining genezisi.....	7
III. Sovchilik qo'shiqlari va aytimlari.....	19
IV. O'zbek xalq dostonlaridagi sovchilik bilan bog'liq udumlar.....	36
V. Xulosa.....	60
VI. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqi o'zining boy ma'naviyati, milliy qadriyatlari va turli-tuman marosimlari bilan dunyo xalqlari madaniyatining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban uyg'onishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir ".¹ Zero, ma'naviyatda insonning iymoni, e'tiqodi, axloqi, hayotning ma'nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo'ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir. Ma'naviy barkamol inson – o'zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi.

Yurtboshimiz tomonidan ma'naviyatga berilgan bu ta'rif ma'naviyatning har bir inson hayoti uchun ham, butun jamiyat uchun ham hal qiluvchilik ahamiyatini aniq ko'rsatib turibdi.

Ma'naviyat deganda biz odamlarning ongidagi vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini, o'z millatining tarixiy merosini yaxshi bilish va hozirgi hayotda ulardan foydalanish, xalqning milliy tili, an'analari, tuyg'ularining e'zozlanishi, qalbga muruvvat, himmat, insof, adolat, oqibat kabi fazilatlarni jo qilishini tushunamiz. Insonning insoniyligi ma'naviy olamining tiniqligi va yuksakligi bilan o'lchanadi.

Xalqimizning milliy ruhiyati va mentalitetini o'zida namoyon etgan marosim folklori ko'p asrlik badiiy tafakkur taraqqiyotini o'zida mujassam etgan ma'naviy qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Marosim folklorining lokal xususiyatlari va tarixiy-tadrijiy rivojini tadqiq etish esa folklorshunoslarning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki ularda xalqimizning shonli o'tmishi, urf-odatlari aks etgan. Ana shunday oltin meroslarimizdan biri to'y marosimi bilan bog'liq

¹ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 19-bet.

udumlardir. Ular o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, hozirga qadar jonli holda saqlanib qolgan.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining badiiy merosi va folklor an'alarini tadqiq etish orqali ma'naviy qadriyatlarni tiklash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Binobarin, o'zbek xalqining to'y marosimi bilan bog'liq urf-odatlar, jumladan, sovchilik bilan bog'liq udumlarni tadqiq etish ana shu jihatdan muhimdir.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek to'y marosimi folklorining o'ziga xos tabiati, janrlar tarkibi, tasnifi va badiiyati masalalari M.Alaviya, B.Sarimsoqov, N.Qurbonova, M.Jo'rayev, S.Davlatov, N.Quronboyeva, O.Ismoilova, L.Xudayqulova kabi folklorshunoslarning ishlarida tadqiq etilgan. To'y marosimi etnografiyasi G.P. Snesev, V.N. Basilov, X.Ismoilov, A.Ashirov, A.Qayumov, G.Tosheva kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, N.N.Tursunov, A.Qurbonov, Q.Panjiyev kabi bir qator olimlarning ishlarida ham to'y marosimi udumlari tahlilga tortilgan. Ammo xalq dostonlarida sovchilik bilan bog'liq udumlar filologik jihatdan tahlil qilinmagan.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi to'y marosimi udumlari, jumladan, xalq dostonlarida sovchilik bilan bog'liq marosimlarning badiiyatini tadqiq etishdan iboratdir. Mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutilgan:

- to'y marosimi folklorining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- to'y marosimi folklorining janrlar tarkibini tasnif qilish;
- o'zbek xalqining bola tug'ilishi va uning beshik davri bilan bog'liq ayrim udumlarni tahlilga tortish;
- dostonlardagi sovchilik bilan bog'liq aytimlarning o'ziga xos tabiatini o'rganish;

- nikoh to'yidan oldin bo'ladigan marosimlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot folklorshunoslik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar, "Go'ro'g'li" turkumidagi va boshqa bir qator dostonlarda qayd etilgan materiallar asosida yaratildi. Shuningdek, Andijon davlat universiteti o'zbek adabiyoti kafedrasida arxivdan yozib olingan materiallardan ham foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Ishda to'y marosimi, nikoh to'yi oldidan o'tkaziladigan udumlar ochib berildi va uning o'zbek umumfolklorida farqlanuvchi o'ziga xos xususiyatlari va hududiy belgilari yoritildi;

- bola tug'ilishi bilan bog'liq urf-odatlar hamda beshik to'yi marosimi o'zbek xalqining serfarzandlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan homiy-momolar kultiga aloqadorligi aniqlandi;
- xalq dostonlaridagi sovchilik bilan bog'liq aytimlar ilk bor tahlil etildi;
- xalq dostonlaridagi sovchilik bilan bog'liq aytimlarning poetik xususiyati o'rganildi.

To'y marosimi bilan bog'liq urf-odatlar, jumladan, sovchilik marosimining o'ziga xos xususiyatlari, janrlar tarkibi va badiiyatini yaxlit ilmiy muammo sifatida tadqiq etishga bag'ishlangan ushbu ishning asosiy xulosalari va umumlashmalari o'zbek marosim folklorini barcha hududlar materiallari asosida keng ko'lamda qiyosiy o'rganishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tahlilga tortilgan faktik materiallar, xulosalar va nazariy fikr-mulohazalardan o'quv yurtlarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti fanini o'qitish, maxsus kurslar o'tish, akademik litsey va kollejlarda hamda maktablarda dars mashg'ulotlari olib borish, o'zbek folkloridan o'quv qo'llanmalari, dars

ishlanmalari va boshqa majmualar yaratish, shuningdek, to'y marosimi bilan bog'liq udumlarni o'rganishda keng foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Ushbu tadqiqotimiz kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.O'zbek marosim folklorining genezisi

Ma'lumki, marosim folklori paydo bo'lish jihatidan xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, yashovchanligi jihatidan eng barqaror ko'rinishlaridan biridir. Marosim folklorida muayyan xalqning turmush tarzi, etnik tarixi, urf-odatlari, qisqasi, uning o'tmishi, butun o'zligi bilan namoyon bo'ladi. Urf-odat va marosimlar uzoq ajdodlarimizning e'tiqodiy tasavvurlari bilan bog'liq holda barqaror an'analar orqali yashab keladi va ular har bir davrda kishilarni o'z ta'siriga oladi.

Biz hayotimiz davomida juda ko'p marosimlarga duch kelimiz va o'zimiz ham ularning ishtirokchisiga aylanamiz. Xo'sh, marosimning o'zi nima? Taniqli folklorshunos olim, professor B.Sarimsoqov qayd etganidek, marosim inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakat, bezak (dekoratsiya) va tekstga ega bo'lgan hayotiy "sahna" asaridir. Shu boisdan dunyoda o'z marosimlariga ega bo'lmagan birorta ham xalq yo'q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida nisbatan to'la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Shuning uchun ham muayyan etnik birlikka xos asosiy xususiyatlarning etnografik mezon sifatida marosim hamma vaqt tadqiqotchilarning markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.²

Bunday etnografik mezonlik darajasiga marosim, eng avvalo, o'zining ijtimoiy tabiati, maishiy, axloqiy va poetik vazifalari orqali erishganligi o'z-o'zidan ayon. Marosim ijtimoiy hodisa sifatida, I.V.Suxanov qayd etganidek, hamma vaqt inson hayotining asosiy burilish nuqtalarida, ko'pincha, ana shu

²B.Sarimsoqov. O'zbek marosim folklori. T., "Fan", 1986, 9-bet.

nuqtalarni qayd etish, qonunlashtirish talabi bilan tug'iladi.³ Inson turmushi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan muvofiq ravishda doim miqdor va sifat jihatidan qay darajada o'zgarishlarga uchrab bormasin, biroq uning hayotidagi burilish nuqtalari (masalan, tug'ilishi, balog'atga yetish, mehnat faoliyatining boshlanishi, nikoh, o'lishi va hokazolar) barqarorligini saqlab qoladi. Demak, marosimning nisbiy barqarorligi, uning yashovchanligi va konservativ tabiati ana shunday real hamda doimiy takrorlanuvchi hayotiy ehtiyojlar bilan bog'liqdir. Ma'lum bo'ladiki, inson o'z hayotining ana shunday burilish nuqtalarini ma'lum bir ijtimoiy akt-marosim orqali qonuniy tusga kiritadi.

Ikkinchidan, marosim bevosita kishilarning tabiat hodisalariga, ijtimoiy voqelikka bo'lgan muayyan munosabati asosida yotuvchi turli-tuman qarash va tasavvurlari tufayli tug'iladi (masalan, totemizm, animizm, fetishizm va hokazo). Bunday qarash hamda tasavvurlar qay darajada mustahkam o'rnashib olgan bo'lsa, bunday marosimlar nihoyatda uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ayrim hollarda marosim mazmunini boshqarib, yo'naltirib turuvchi e'tiqodiy tasavvurlarning real hayotiy mag'zi puch ekanligi kishilarga ma'lum bo'lsa ham, biroq qat'iy ijtimoiy an'anaga kirib qolgan bunday marosimlar uzoq vaqt iste'molda bo'lib qolaveradi. Birgina misol. Kishi o'lgach, uning dafn etilishidan keyingi ko'pgina marosimlar, masalan, uchlik, yettilik, yigirma, qirq kabilar tub mohiyati jihatidan ruhlar haqidagi animistik tasavvurlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Mana shu tasavvurlar tufayligina bunday marosimlar motam marosimlari sistemasida barqaror o'rnashib qolgan. Hozir aksariyat kishilar o'rtasida ruhlar haqidagi e'tiqodiy tasavvurlar sustlashib, hattoki yo'qolib ketgan va ketayotgan bir paytda ham yuqoridagi marosimlarga ayrim hollarda amal qilinmoqda. Marosimdagi bunday barqarorlik endi o'zining mazmuniy bosimi bilan emas, kuchli an'anaviyligi bilan yashab kelmoqda. Bunday misollarni insonning tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ko'plab marosimlardan ham keltirish mumkin. Xullas, inson marosimsiz yashay olmaydi; har qanday marosim

³ Суханов И. В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. М., 1976, с.39.

ayrim olingan shaxslar xohishiga bog'liq bo'lmagan holda ijtimoiy hodisa sifatida yashayveradi.

Uchinchidan, marosimning inson hayotida katta o'rin tutishi, barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri uning ijtimoiy vazifani o'tashi bilan ham bog'liqdir. Jamiyatda birorta ham keraksiz, hech qanday ijtimoiy vazifa bajarmaydigan marosim yo'q va bo'lishi mumkin emas. Darhaqiqat, marosimni jamiyat hayoti bilan bog'lovchi muhim omil – bu uning faol funksionalligidir.⁴ Marosimni ijtimoiy vazifalari haqida fikr yuritir ekan, I.V.Suxanov asosan uning ikki – psixologik va estetik vazifasini ko'rsatib o'tadi.⁵ Albatta, bu ikki vazifa marosimlarning jamiyat hayotidagi ulkan ta'sirini belgilovchi omillar sanaladi. Chunki marosim inson hayotidagi asosiy burilish nuqtalarini, uning tabiat hodisalariga bo'lgan munosabatidagi muhim jihatlarni jamiyat doirasida ma'lum qilish uchun kishilarni ruhiy jihatdan tayyorlashi lozim. Binobarin, marosimning jamiyat hayotida tutgan o'rni bevosita uning psixologik vazifasiga bog'liq. Psixologik vazifasi bo'shashgan marosimning o'zi ham inqirozga yuz tutadi.

Marosimning estetik vazifasiga kelganda shuni aytish kerakki, har qanday marosim tarkibida estetik jihatdan arzigulik biror jihat mavjud. Bu jihat esa o'z navbatida genetik jihatdan professional-individual asoslarga borib taqalsa ham, biror uzoq davrlar mobaynida keng ijtimoiy doirada qo'llanilishi tufayli ijtimoiy-estetik qimmat kasb etadi. Istalgan marosimga murojaat etilsa, unda xoreografik yo dramatik, yo musiqiy, yo badiiy so'zga xos elementlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Marosim tarkibidagi so'z elementlari mavjudligiga kelganda shuni aytish kerakki, marosim o'z tarkibiga har qanday janrga xos badiiy matnlarni qamrab olmaydi. Marosim tarkibidagi badiiy so'zga xos unsurlar shu marosimning semantik tabiati bilan bog'liq holda uning mohiyatini belgilovchi, har qanday badiiylardan holi matnlar sifatida yuzaga kelib, asta-sekin insoniy badiiy fikrlash

⁴ B.Sarimsoqov. O'zbek marosimfolklori. T., "Fan", 1986, 11-b.

⁵ Суханов И.В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. с.47-67.

tarzining rivoji bilan chambarchas bog'liqlikda poetik tabiat kasb eta boradi va shu orqali marosim asta-sekin estetik vazifani bajarishga ko'chadi.

Marosimning bu ikki vazifasidan uchinchi bir vazifasi uning uyushtiruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasi kelib chiqadi. O'z navbatida ruhiy va estetik vazifalar marosimning ana shu muhim va asosiy vazifasi uchun xizmat qiladi. Chunki inson hayotidagi u yoki bu burilish vaqtini qayd etish va uni yangi burilish nuqtasi tomon yo'naltirish marosimning ijtimoiy-axloqiy vazifasi sanaladi. Demak, marosim uch muhim funksiya: ruhiy, estetik va uyushtiruvchanlik (yo'naltiruvchanlik) kabi funksiyalarni o'taydi.

“Marosim” va “urf-odat” atamaları kundalik nutqimizda keng tushunchalardek qo'llaniladi. Bunday holat hattoki, bir qator etnografik adabiyotlarda ham uchrab turadi. U holda “marosim” va “urf-odat” tushunchalari bir narsami yoki farqli tushunchalarmi, degan savol tug'iladi. Bizningcha, ular bir-biri bilan bog'liq, ammo bir-biridan keskin farqlanuvchi tushunchalar hisoblanadi.⁶

Eng avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, urf-odat tushunchasi o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini: oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro muomala tarzi hamda boshqa marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha rasmiy xarakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtirilgan namoyishlardan iborat. Marosim, N.I.Kravsov ta'biri bilan aytganda, kishilarning tabiat va jamiyat kuchlariga ta'sir o'tkazish orqali o'zlariga to'kin-sochinlik, baxt-saodat, sog'-salomatlik keltirish maqsadida maxsus uyushtirilgan xatti-harakatlardan iborat.⁷

Yuqorida keltirilgan qisqacha qaydlardan ko'rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim

⁶ B.Sarimsoqov. O'zbek marosimfolklori. T., “Fan”, 1986, 12-bet.

⁷ Кравцов Н.И. Славянский фольклор. М., 1976, с. 42.

tushunchasi xalq hayotining muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat odatdagi xatti-harakatlardan (marosimlardan) tashkil topsa, marosim faqat maxsus uyushtirilgan ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida, marosim belgilangan shaxslar tomonidan (marosim ishtirokchilari) bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdan iboratdir. Masalan, kishilar bir-birlari bilan uchrashib qolganlarida salomlashadilar yoki kattalarga kichiklarning oldinroq salom berishi urf-odatning barcha tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan qoidaligini ko'rsatsa, to'yda yor-yor aytish faqat to'y marosimlaridagi ayrim ishtirokchilarninggina vazifasiga kiradi.

Urf-odat o'z ichida ramziy va ramziy bo'lmagan xatti-harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi, marosim bir xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi.

Demak, urf-odat va marosim tushunchalari o'zaro bog'liq va ayni paytda keskin farqlanuvchi tushunchalar hisoblanadi. Biroq shunga qaramay, marosim u yoki bu xalq urf-odatlarining yetakchi, belgilovchi tomonlarini tashkil etadi. Mana shuning uchun ham biror xalqning urf-odatlarini boshqa xalqlarnikidan farqlashda, asosan ularning marosimlari taqqoslanadi. Urf-odat va marosim tushunchalari qay darajada farqli bo'lmasin, ular o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Biroq bu bog'liq mazkur ikki tushunchani anglatuvchi atamalarni befarq qo'llashga asos bo'la olmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu ikki tushuncha keyingi paytlarda asosan nozik farqlangan holda qo'llaniladi. Bu jihatdan I.V.Suxanov hamda D.M.Ugrinovichlarning monografiyalari alohida diqqatga sazovordir.⁸ Ammo o'zbek marosim folklorini tadqiq etishga bag'ishlangan ayrim ishlarda hozirga qadar "urf-odat", "marosim", ayrim hollarda "bayram" atamalari izchil farqlanmagan holda qo'llaniladi.⁹

Binobarin, biz quyida mazkur tushunchalarning farqli jihatlari xususida batafsil to'xtala olmasak ham, biroq o'z tadqiqotimiz obyektining chegaralarini

⁸ Суханов И. В. Обычаи, традиции обряды как социальные явления. Горкий, 1973. Угринович Д. М. Обряды, за и против. М., 1975.

⁹ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. T., 1974.

to'g'ri belgilab olish zaruriyati tufayli ham bu masala haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, har qanday marosim muayyan xalqqa taalluqli bo'ladi. Shunday ekan, ayrim olingan har qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Demak, marosimdan urf-odat elementlarini qidirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi. Bu masalada taniqli etnograf S.A.Tokarevning fikrini to'la baham ko'rishni lozim topamiz. U urf-odat, marosim tushunchalarining o'zaro bog'liq va farqli tomonlari masalasida fikr yuritir ekan, "urf-odat" mantiqan "tur" (rod) tushunchasiga, marosim esa shu turga kiruvchi "xil" tushunchasiga to'g'ri keladi¹⁰ degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, marosim urf-odatni bevosita tashkil etuvchi, uni ma'lum me'yorda belgilovchi ichki guruh bo'lganligi uchun S.A.Tokarevning yuqoridagi xulosalariga to'la qo'shilamiz.

Xullas, marosim xalq urf-odatlarining ma'lum qismini tashkil etadi, qolganlari esa marosimsiz rioya qilinadigan rasm-rusum, irim-sirim va an'analar hisoblanadi.

Muhtaram yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar: yangilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir.

Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oiladagi umrbod qarzдорlik burchini chuqur anglash har qaysi

¹⁰ Токарев С. А. Обычаи и обряды в странах зарубежной Европы. Исторические корни и развитие обычаев. М., 1983, с. 5-7.

insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.¹¹

Odamlar uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi-bularning barchasi, avvalo, uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

Qolaversa, aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib, singdirib oladi. Ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan kunga takomillashib boradi.

Qisqacha qilib aytganda, xonadondagi har bir narsa: daraxt va o'simlik bo'ladimi, turli o'yinchoqlar, uy hayvonlari bo'ladimi-bularning barchasi bolaning ko'ziga go'yoki olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u o'zi uchun yorug' dunyoni kashf etadi.

Taassufki, ba'zi ota-onalar o'z farzandining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ong-u tafakkurida har kuni bir o'zgarish ro'y berib, o'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga ahamiyat bermaydi. Boz ustiga agar ota oilada o'zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy

¹¹ I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 52-bet.

olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaqti-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo'ladi.

Yoki oilada qo'ni-qo'shnilarni ko'rolmaslik, fisq-u fasod, ig'vo muhiti hukmron bo'lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo'lmaydigan og'ir asoratlar qoldiradi. Umuman, oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola mehribon yo rahmdil, xudbin yo bag'ritosh bo'lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas.

Shuning uchun yurtboshimiz bejiz, biz o'z farzandlarimizning baxt-u saodati, iqboli va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko'ydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur, deb ta'kidlamaganlar.

Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosida qurish ayni muddao bo'lur edi. Bugungi kunda xalqimizning qadimiy go'zal axloq mezonlari bilan yashab kelayotgan, o'g'il-qizlarini shu ruhda tarbiyalayotgan ko'plab ibratli oilalar barchamizda havas uyg'otishi tabiiydir.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, odob-axloq, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim otanonalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin.

“O'z-o'zidan ravshanki, – deya ta'kidlaydi yurtboshimiz, – yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini

inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi".¹²

Bola tug'ilishi bilan oiladagi shodiyonalar boshlanadi. Turli udumlar o'tkaziladi. Ana shulardan biri bola tug'ilishi va beshik davri marosimlaridir. Ma'lumki, bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlarda muhim o'rin tutadigan mifologik personajlardan biri "homiy-momo" obrazining tarixiy asoslari serhosillik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan "muqaddas ona" haqidagi mifik tasavvurlar hamda shomon ayollar ruhidan madad tilash rituallariga borib taqaladi. Chunonchi, Surxon vohasida ana shunday mifologik personajlar haqidagi xalq qarashlari saqlanib qolgan. 1940-yilda tug'ilgan qumqo'rg'onlik Bo'rixol Xudoyqulovadan yozib olingan materiallarga ko'ra, homilador ayollarning piri sifatida e'tirof etiladigan "hoviy momo" lar yetti nafar bo'lib, ular Sariq momo, Qora momo, Titti momo, Ochil momo, Gulsun momo, Yozil momo va Tuvgich momo deb atalgan. "Yetti momo" kulti bilan bog'liq marosimda supra yoki matoning ustiga "chiltan toshi" va loydan yasalgan kulcha qo'yiladi. Homilador ayolning boshi uzra yoqilgan piliklarni aylantirayotganda:

Gulsun momo, qo'shib keting,
Yozil momo, yozilib keting,
Ochil momo, ochilib keting,
Sariq momo, sochilib keting,
Titti momo, titilib keting,
Qora momojonim, ochib yuboring,
Yozib yuboring, titib yuboring,
To'ng'ich momojonim, tuvdirib keting,
Yo'llarini ochib ul berib keting, –

¹² I.Karimov. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 55-56-betlar.

deb aytim aytiladi.

Tug'ruq chog'ida momolar kulti bilan bog'liq magik xarakterdagi irim-sirimlarga amal qilinadi. Xususan, qaynona o'z ko'ylagining etagi bilan kelinining yelkasiga uch marta sekin urib: "Momolari yo'l bersin, bibi Fotima, bibi Zuhralar qo'llasin, tush, tush, tush", – deydi; ayolni "qora bosmasin" deb qora qozonni to'nkarib qo'yishadi; "homilador ayolning yo'li bosilmasin" deb barcha tugmalarni va tugunlarni yechishadi; "ilon po'st tashlaganday chaqaloq osongina tug'ilsin" deb isiriqqa ilonning po'stini qo'shib tutatishadi.

Ayol tug'ayotganda qiynalmasligi uchun qaynotasiga ko'ylak, to'n, ko'rpa, ko'rpacha va kiyim hadya etadilar. Bu udum "o't-o'choq" deb ataladi. Sariosiyo tumanida esa ayol tug'ayotganda qiynalsa, Momo havoga atab uchta chiroq yoqib: "Aylanayin Momo havo, yanglishmoq mendan, yorqin qilmoq sizdan, yodga olmoq mendan, yorlaqamoq sizdan. Momo havo qo'llab-quvvatlab yursin, men sizga sig'indim, kuchim yetsa aytgan-boylagan xudoyilarimni o'tkazib bering!" – deydilar.

Surxon vohasida chaqaloqning yo'ldoshini bir hovuch makka yoki bug'doy qo'shib, mevali daraxt tagiga ko'mishgan. Bu udum zamirida serhosillik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'liq tushunchalar, "tuqqan ayolning farzandi ko'p bo'lsin, bolaning rizqi mo'l bo'lsin", degan qarashlar yotadi.

Umumo'zbek marosim folklorida bo'lgani singari, Surxon vohasida ham chaqaloq besh kunlik bo'lganida uni ziyon-zahmatdan saqlash maqsadida quyidagi qo'shiq-aytim ijro etiladi:

Beshdan o'tdi, toshdan o'tdi,
Chordevor hovlidan o'tdi.
Choli bor hovlidan o'tdi.
Otasining qo'shpichog'i,
Onasining oshpichog'i,

Opasining ovunchog'i.

Bizningcha, bu qo'shiq-aytim aslida chaqaloq boshini devorning teshigidan o'tkazishdan iborat ramziy ritual chog'ida ijro etilgan bo'lib, keyinchalik bola tug'ilgandan keyingi beshinchi kechani kuzatish marosimida aytiladigan an'anaviy qo'shiqqa aylangan. Chunki Jarqo'rg'on tumanida qayd qilingan udunga ko'ra, chaqaloq tug'ilsa-da, bola turmaydigan oilalarda farzand dunyoga kelganda birorta yoshi ulug' chol yashaydigan hovlining eski devorini teshib, chaqaloqning boshini ana shu teshikdan uch marta u yoqdan bu yoqqa o'tkazib olishgan va bu amal bajarilayotganda: "Yechil-yechil!"– aytimini takrorlab turganlar.

Chaqaloqni ilk bor beshikka belash amalini o'zidan tinchigan, serfarzand momo bajaradi. Bolani beshikka yotqizishda quyidagi aytim aytiladi:

Shugina jonim, shu jonim,
Boshimdagi gultojim.
Shu dunyoni ko'rsin deb,
Shu beshikka kirsin deb,
Bo'ynimdagi marjonim,
Xudo berdi sevsin deb,
Oltin beshik ham berdi,
Shu beshikka kirsin deb.

Shundan so'ng "Uyquchi", "Qo'rquv-qo'rquv", "Sog' bo'lsin" kabi udumlar bajariladi. Masalan, "Qo'rquv-qo'rquv" udumi shunday amalga oshiriladi. Bunda serfarzand va uvali-juvali bo'lgan momo savag'ich bilan beshikni uch marta urib, beshikning dastasi ustida yong'oq chaqadi. Bu magik amal bajarilayotgan paytda momolar:

Otang onangni urushsa – qo'rqma,
Eshikda pishaklar miyolasa – qo'rqma,
Ko'chada kuchuklar vovillasa – qo'rqma,

Xangi eshak xangillasa – qo'rqma! –

aytimini aytib turadilar.

Bola ulg'aya boshlagach xatna to'yi o'tkaziladi. Bola o'sib-ulg'ayib voyaga yetgach esa uning hayotidagi nikoh to'yi marosimi bilan uning mustaqil hayotga qadam qo'yishi boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, endi farzand o'zi tug'ilib voyaga yetgan oila – Vatan ichra vatan bo'lgan muqaddas go'shani mustaqil boshqaradigan insonga, oila boshlig'iga aylanadi.

2. Sovchilik qo'shiqlari va aytimlari.

Oila – yurt tayanchi, jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi muqaddas dargoh. Shuning uchun ham qadim-qadimdan oilaga va uni mustahkamlashga e'tibor qaratib kelinadi.

“Oila tinchligi – el tinchligi” deb bejiz aytishmagan. Jamiyatimizda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar unda o'z aksini topadi. Yurtimiz osmonining tinch va osudaligi, oilalar kamoloti, ularning tinch-totuvligi, o'zbekona mehr-u muruvvat, odamoxunlik va bag'ridaryolik uchun yorqin yo'l ochadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” deb nomlangan risolasida: “Oila – bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim qadriyatlardan biridir “, – degan edilar. Jahon miqyosida, ayniqsa, o'zbek oilasi o'ziga xos milliy odat va an'analar, muomala odobi, bolajonligi bilan ajralib turadi.

Odatda oilaning vujudga kelishiga nikoh asos bo'ladi. Nikoh – bu yigit va qizning teng huquqli oila qurish maqsadini qonun bilan belgilangan shart va tartiblariga rioya qilib, o'z erk va ixtiyorlari bilan erkin tuzgan ittifoqidir.

Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish qiyin, chunki u turmushning juda muhim qismidir. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil qiladi. Ular o'rtasida yaqin oilaviy munosabatlar mavjuddir. Bu shaxslar oilaning yadrosini tashkil etadi.

Oilaning baxtli, mustahkam bo'lishida ota-onaning bir-biriga munosabati, teng huquqliligi, turmushda bir-biriga ma'naviy hamda moddiy tomondan yordamlashishi, bolalar tarbiyasi uchun birgalikda g'amxo'rlik qilishi, ma'naviy - axloqiy hamjihatlik oilani mustahkamlovchi asosiy omillardir. Darhaqiqat, oila yuritish ham bir san'atdir. Buni anglab yetgan har bir ota-ona oilani

mustahkamlash, farzandlarning kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish kabi o'z burchini to'liq ado etishlari kerak.

Oila – jamiyatning asosi ekan, ezgulik yo'lini tanlagan ana shu jamiyatimizda oilalar faqat yaxshilik urug'idan vujudga kelsin. Zero, jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdordir.

Tadqiqotimizning ushbu faslida to'ygacha bo'lgan urf-odatlar va marosimlar folklori haqida fikr yuritamiz. Ishimizda aholi orasida urf bo'lgan “eshik supurdi”, “belquda” yoki “belqudalik”, “etak yirtar”, “beshik kerti”, “quloq tishlatar”, “el belgisi”, “ro'mol o'rar”, “sovchilik”, “qiz sinov”, “o'tin yorar”, “konchiga tovoq”, “jaloq qizartirar”, “fotiha to'yi”, “to'y haydash”, “tanish tovoq”, “shoh uloq”, “bo'xcha ochar”, “hadya tovoq”, “qalliq o'yin” kabi udumlaridan biri sovchilik haqida batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

Sovchilik respublikamizning barcha viloyatlarida ham mavjud bo'lib, turli viloyatlarda turlicha ado etilsa-da, albatta, to'ydan oldin qiz xonadoniga kelinadi. Masalan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida “Eshik supurdi” udumi bo'lib, kelin izlab kelgan sovchilar ramziy ma'noda qo'llariga supurgi olib eshik supuradilar. Bu bilan ular “Biz eshigimizni supuradigan kelin izlab keldik. U bizning eshigimizni ham supuradigan bo'lsin” demoqchi, shu bilan birga bu holatda tozalik uchun e'tibor qaratish ma'nosi ham bor. Xullas, sovchilar salom-alikdan so'ng “Biz qulchilikka keldik” deydilar. Gapga ustaroq sovchilardan biri shunday gap boshlaydi:

– Sizning hovlingizda ajoyib bir gul bor emish. Ul gulning ta'rifi biz tomonlarga ham yetdi. U gulni bir ko'rganlar yana ko'rishni, ko'rmaganlar esa bir ko'rishni orzu qilarmish. Mana shu bog'ingizda yetishtirilgan toza gulingizga bizning bulbulimiz oshiq bo'lib qolibdi. Shuning uchun shu gulingizni bulbulimizga so'rab keldik. Nima deysizlar ? – deydi.

Qizning ota-onalari “O’ylab ko’raylik. Maslahat qilaylik”, – deyishadi. Sovchilar ikkinchi marta kelganlarida agar rozi bo’lsalar, quda tomonga oqlik berishadi. Quda tomon esa kelinga ro’mol o’ratib, “Endi bu qizning boshi bog’landi, ya’ni endi uning egasi bor” – deb ketishadi.

Bunday urf-odat qadimdan mavjud. Odatda quda tomon qizni kelin qilishdan avval mahallasiga kelib, qo’ni-qo’shnilaridan ularning uy tutumi, bola tarbiyasi borasidagi o’zlarini qiziqtirgan masalalarni, ularning yetti pushtini, avlodida yomon kasallik bilan og’riganlar bor-yo’qligini so’rab-surishtiradilar.

Ko’pchilikning eng sinalgan udumi bolalarni yoshligidan bir-biriga unashtirib (atab) qo’yishdir. Bu haqda folklorshunos olim Latifa Xudoyqulova quyidagilarni yozadi.

Xalqimizda farzandlari kelgusida oila qurishini orzu qilgan kishilarning o’z bolalarini bir-biriga atashtirib qo’yish udumi qadimdan keng tarqalgan bo’lib, bu an’ananing Surxon vohasi aholisi orasida ham urf bo’lgan o’ziga xos talqinlaridan biri “belquda”likdir. Bunda bir-biri bilan do’st, inoq yoki yaqin qarindosh bo’lgan ikki oila a’zolari birining tug’ilajak farzandi o’g’il bo’lib, ikkinchisidiki qiz chaqaloq bo’lsa, ular kelgusida quda bo’lishga ahdlashganlar. Ana shu odat “belquda” yoki “belqudalik” deyilgan.

Oilasida farzand tug’ilgan ota-ona uning baxti, kelajagi haqida qayg’urgan, shu bois, o’g’il ko’rgan kishilar o’zlarining birorta yaqin qarindosh yoki tanish-bilishlaridan birining ayoli qiz ko’rsa, ularni bolaligidanoq bir-birlariga atab qo’yganlar. Xalq orasida “etak yirtar”, “beshik kerti”, “quloq tishlatar” deb yuritilgan bu odat ko’pincha qiz farzand tug’ilgan oilada “Beshik to’yi” marosimida amalga oshirilgan.¹³ Ikki oila a’zolarining farzandlari katta bo’lganidan keyin quda bo’lishni niyat qilishgan va qiz bolani ilk bor beshikka belayotganda o’g’il tomon qizga atab tikilgan ko’ylakni kiydirib qo’yishgan.

¹³ L. Xudoyqulova. Surxon vohasi sovchilik qo’shiqlari va ayti mlari. O’zbek folklorshunoslik masalalari. II kitob. T., 2010, Fan, 155-bet.

Andijon viloyatida o'g'il farzand ko'rgan kishi qizaloq beshigining biror joyini pichog'i bilan ozgina kertib qo'ygan, shu bilan bu qizaloq yoshligidan "egalik bo'lgan" hisoblangan.¹⁴

Surxon vohasida esa ikki oila o'z farzandlari katta bo'lganida quda bo'lishni niyat qilsalar, bola ilk bor beshikka belanayotganda o'g'il tomon qizga marjon taqib yoki ko'ylak kiydirib qo'ygan. O'g'il bolaning otasi yoki bobosi pichog'i bilan qizaloq beshigining qubbasidan ozgina kertib qo'ygan va shu bilan bu beshik egasi o'sha bolaning "beshik kerti"si deb yuritilgan. Qashqadaryo hududida istiqomat qilgan o'zbek-qarluqlar shevasida bu udum "beshik ardi" deyilgan. O'g'il farzand ko'rgan ona qizaloq dunyoga kelgan oilani muborakbod etgani borganida, ro'molchasi yoki ko'ylagining yengi bilan qiz tug'ilgan xonadon ostonasini supurgan.¹⁵

Qashqadaryo viloyatida ikkala go'dak ko'ylagining orqa etaklari birga ushlab turilib, uchlari tugilgan, ota-onalar ana shu tugunni bolalar balog'atga yetgunga qadar saqlaganlar. Dehqonobodda ham ikki go'dakni bir tog'oraga o'tqazib qo'yib orqa etaklarini qo'shib yirtib qo'yishgan. Koson, Qarshi shaharlarida o'zaro yaqin bo'lgan oilalarda o'g'il va qiz bola tug'ilsa, ularning etaklarini bir-biriga bog'lab qo'yishgan. "Etak bog'lash" deb atalgan bu odat ana shu qizaloq bilan o'g'il bola unashtirib qo'yilganligi va ular ulg'ayib, balog'atga yetishganda turmush qurishini bildirgan.¹⁶

Surxon vohasining Denov tumanida bu odat "etak yirtar" deyiladi. Bola tug'ilganda kelin qilishni niyat qilgan oila qiz farzand tug'ilgan xonadonga kelib chaqaloqqa kiygizilgan ko'ylakning etagini irim qilib yirtib qo'ygan. O'sha qiz bola voyaga yetganida uning etagini yirtgan oila tomonidan "el belgisi" deb nomlangan marosim o'tkazilgan. Buning uchun oilaning yaqin qarindosh-urug'lari

¹⁴ Jo'raboyev A., O'zbek tilida to'y marosim nomlari / Andijon guruh shevalari materiali asosida / Filol.fanlari nomz.diss., T., 1971, 158-bet.

¹⁵ Shaniyazov K. O'zbeki- karluqi. T., Fan, 1964, s.140.

¹⁶ Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining nikoh to'yi marosimlari. Tarix fanlari nomz. Diss. T., 2002, ilova-lug'at.

va mahalla oqsoqollari ishtirokida qizning uyiga biror jonkiq, ko'pincha qo'chqor olib kelib so'yganlar va fotiha o'qiganlar. Shundan keyin bu qiz "belgili" hisoblangan va uning uyiga boshqa xonadondan sovchi qo'yilmagan, chunki qiz endi "egali" ekanligi elga ma'lum qilingan bo'ladi.

Surxon vohasida ham nikoh to'yining birinchi bosqichida "qiz tanlash" va "sovchilik" udumlari muhim o'rin tutadi. Qadimda Surxon vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida agarda yigit tomon birorta qizni yoqtirib qolsa, o'sha qiz istiqomat qiladiga xonadonga sovchi yubortirgan va qizning boshiga ro'mol tashlattirgan. Agar qiz rozi bo'lsa, ro'molni olib qolgan, yoqmasa ro'molni egasiga qaytarib bergan yoki tashlab ketgan.

Odatda o'troq aholi orasida "qiz tanlash", "ro'mol tashlash" jarayonlarida ayollar faol ishtirok erishsa, bevosita sovchilikning o'zida erkaklar qatnashishgan. An'anaga ko'ra, tanlangan qiz xonadoniga ayollarning "og'iz islash uchun" borishi "makiyon sovchi" deyilgan. Ayollar masalani hal qilib bo'lishgach, ya'ni qiz tomonning roziligi ma'lum bo'lgach, uch nafar erkak kishilar sovchilikka yuborilgan.

"Sovchi" so'zining etimologiyasiga asos bo'lgan leksema Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "sov"/"sav" shaklida berilgan bo'lib, uning ma'nosi "otalar so'zi", "qissa", "qadimgi voqeadan xabar berish", "hikoya", "xat", "xabar", "yangiliklarni yetkazuvchi" tarzida izohlangan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy "savchi"/sovchi/ so'zi "kelin va kuyov orasida xat-xabarlar eltuvchi kishi" ma'nosida qo'llanilishini ham alohida qayd etadi.¹⁷

Sovchilik qilish bilan bog'liq udumlar Andijon viloyatida "kovush yirtar", "eshik supurdi", "ro'mol tashladi" deb yuritiladi.¹⁸ Bu udum asosan ikki xil usulda amalga oshirilgan:

¹⁷ Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3-tom. T., Fan, 1963, 169-bet.

¹⁸ Джурбаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке. Автореф. Дисс. канд. филол. наук, Т., 1971, с. 14.

a) kuyov bo'layotgan yigit yashaydigan mahallaning hurmatli oqsoqollari yoki qarindoshlaridan bittasi yoki bir nechtasi qizning uyiga sovchilikka yuboriladi;

b) kuyovning onasi yoki uning yaqin qarindosh ayollari dasturxon yasab boradilar. Ular bir necha marta borishadi va oxirgi borishlarida odatda to'qqizta patir va qatlama solingan dasturxon olib boradilar. Agar qiz tomon rozi bo'lsa, dasturxonni ochib, qatlama-patirlarni oladi, rozi bo'lmasa, dasturxonga tegmasdan qaytaradi. Qiz tomon moyillik bildirsa, erkak sovchilar yuboriladi. Ayrim joylarda (masalan, Chiroqchida) qiz taraf rozilik bildirganligini anglatish uchun sovchilarni yaxshi taom bilan siylaydi. Bu odat "og'iz moylaydi" deyiladi.¹⁹

Etnograf Sh.Shoniyozov qorluqlarning nikoh to'yi marosimi udumlari haqida to'xtalib, quyidagilarni yozadi: "Kelin bo'ladigan qiz tanlangandan keyin yigit tomondan ikki ayol: kuyov bo'lgichning ammasi, xolasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishadi. Ular o'tovga kirishdan avval "Qulchilikka keldik!"– deydilar. Qizning onasi esa "Xush kelibsizlar"– deb kutib oladi. Sovchilar oldiga dasturxon yoziladi va choy ichib o'tirib, gap orasida sovchilardan biri maqsadini ayon qiladi".

Mamlakatimizning ko'pgina hududlarida sovchilikka borgan kishilarning qiz tomon bilan savol-javobi ko'pincha nasriy usulda ifoda etilsa, Surxondaryo viloyati tumanlarida yashovchi o'zbeklar orasida sovchilik qo'shiqlari saqlanib qolganligi voha marosim folklorining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Xususan, Boysun tumanining Ariq usti qishlog'ida istiqomat qiluvchi 93 yoshli Umbar bobo Xo'jamovdan quyidagi "sovchi qo'shig'i" yozib olingan.

Girdingni o'rab keldik,
Oyoqni tirab keldik.
Shu hovlida bir gul bor,
Shu gulni so'rab keldik.

¹⁹ Jo'rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma'lumotnoma. T., 2008, 97-bet.

Shu hovlida bir gul bor
Shu gulga bir bulbul zor.
Ikkisi qovushmasa,
Yig'lab o'tadi zor-zor.
Bulbul zavol bo'lmasin,
Gul ham uvol bo'lmasin.
Ikkisini ayirgan-ey,
Bir kun rohat ko'rmasin.
Olma guli noparmon,
Hech kim ko'rmasin armon.
Shu gulingni bermasang-ey,
Boysun bo'ladi vayron.

Shuningdek, Surxon vohasi aholisi orasida sovchilik jarayoni bilan bog'liq turli xil aytim va alomatlar ham mavjud. Masalan, Boysun tumanining Qizilnov qishlog'ida yashovchi qatag'on urug'iga mansub o'zbeklar sovchilikni "elchilik" deyishadi. Sovchilar qiznikiga borganda "Elga tushgan elchiman, Qizga kelgan sovchiman, Bir qorabay cho'ri so'rab keldim", – deyishgan.

Shu tumandagi Machay qishlog'ida esa sovchilikka kelgan kishilar: "Biz sizning uyingizga kunda yorgani keldik", – deyishgan. Bu aytim o'zbek nikoh to'yi marosimi tizimidagi "kuyov sinov" udumi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ilgari qiz tomon katta daraxtlarning kundasini yordirish orqali bo'lajak kuyovni sinab ko'rgan.

Boysun shahri yaqinidagi Sariosiyo qishlog'ida sovchilikka borgan kishilar: "Sizlar bizning xesh-u taboramiz, shu bois, qarindoshlikni mustahkamlash uchun uyingizga yovchi bo'lib keldik", – deyishgan.²⁰

²⁰ Ashurov A., Qayumov A. Boysun aholisining an'anaviy turmush tarzi: o'tmishda va hozirda. Boysun tarixi va an'analari. Boysun ilmiy ekspeditsiyasi to'plami. T., 2005, 97-100-betlar.

Bundan tashqari Surxondaryo viloyatida sovchilar qizning uyiga borganda : “Qulchilikka keldik”, “Eshik (yoki hovli) supurishga keldik”, “Qarindosh bo’lish uchun keldik”, “Bir bolangizni bizlarga farzandlikka berarsiz deb keldik”, “Bir farzandimiz ikkita bo’lsin deb keldik”, – deya gap boshlar ekan.²¹

Etnograf olim N.Tursunovning qayd etishicha, Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida “kelin tanlangach qiz xonadoniga sovchilar yuborilgan, sovchilikka yaqin qarindoshi (mumkin qadar kuyovning tog’asi) yoki qishloqning obro’li, uvali-juvali kishilaridan biri borgan. Erkak sovchilardan keyin ayol sovchilar: kuyovning xolasi, ammasi va turmushga chiqqan opasi borgan. Qizning uyiga borgan sovchilar “Qulchilikka keldik”,–deyishgan, ularga “Xush kelibsizlar”,– deb javob berilgan. Shundan so’ng kuyov tomon “Sizda paxmoq qiz, bizda tentak o’g’il bor, ikkovini qovushtirib qo’ysak, nima deysiz?” – deyishgan. Qiz tomon rozi bo’lsa, qizning otasi, aka-ukalari va boshqa qarindoshlari bilan maslahatlashib ko’rishlarini aytgan. Agar rozi bo’lmasa, “Bizning qizimiz hali bo’yiga yetgani yo’q” yoki “Bizning qizimizning boshi bog’langan”,– deb javob berilgan. Rozi bo’lgan taqdirda sovchilarni kuzata turib, “Xush kelibsizlar, yana kelinglar”, – deyishgan.²²

Oltinsoy tumaning Xo’jaipok jamoa xo’jaligidagi Oxun mahallasida yashovchi 66 yoshli Qizlarxon Jo’rayevaning aytishicha, shu qishloqda sovchilik odati bilan bog’liq quyidagi qo’shiq mavjud:

Adir oshib taqa otli,
Sovchi keldi qizimga.
Otining taqasi tillo,
Sovchi keldi qizimga.
Juft otli adir oshib,

²¹ Omonturdiyev A., Professional nutq effemikasi. T., FAN, 2007, 164-bet.

²² Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari/XIX asr oxiri-Xxasr boshlari/. Tarix fanlari nomz.diss. T., 2007, 138-bet.

Sovchi keldi qizimga.
Adir oshib suruv-suruv,
Qo'ylar keldi qizimga.
Quyrug'i katta qo'ylar bilan
To'ylar keldi qizimga.
Dupur-dupur ot keldi,
Chiqib qarang kim keldi.
Adir osha taqa otli,
Kuyov keldi qizimga.

Xuddi shunga o'xshash qo'shiqlar boshqa viloyatlarda ham ijro etilgan. Jumladan, Xorazm viloyatining Xonqa tumanida sovchi kelishi bilan bog'liq quyidagi qo'shiq mavjud:

Qizim-qizim, qiz kishi,
Qizimga galar yuz kishi.
Olar ketar bir kishi,
Qarab qolar ming kishi.²³

Nazarimizda, o'zbek folklorida sovchilik aytimlari va qo'shiqlari ilgari ancha keng ommalashgan bo'lib, tarixiy-folkloriy jarayon rivoji natijasida bu udumning poetik matnlari qiz bolalarni suyish maqsadida ijro etiladigan erkalama sifatida ijro etilib kelgan.

Sovchilar qizning uyidan xushxabar bilan qaytgan kuni, ya'ni qiz tomonning roziligini olib kelishganda, kuyovning otasi xursandligidan qo'y so'yib, jalog'iga qon oqizgan va to'y boshlanganligini elga ma'lum qilgan. Kayvoni ayollar jaloqqa isiriq tutatib, o't yoqqanlar. Ana shu udum Qumqo'rg'onda yashovchi munka urug'ida "jaloq qizartirish" deb atalgan. Har bir oilaning qo'y so'yiladigan joyda maxsus chuqurchasi bo'lib, bu "jaloq" deb atalgan. Shunga ko'ra, "jaloq qizartirar"

²³ Quronboyeva N. Xorazm to'y qo'shiqlari. Filol. fanlari nomz.diss. avtoref. T., 1998, 26-27-bet.

qo'y so'yib, jaloq-chuqurchaga qon oqizish ma'nosini bildirgan. Bu udum vohaning boshqa joylarida, masalan, Oltinsoy tumanida "konchiga tovoq" deb yuritilgan. Bu udum XX asrning 50-80-yillarida katta marosim tarzida o'tkazilgan. Sovchilar qiz tomonning roziligini olganlaridan keyin yigit tarafdin bo'lajak kelinning oilasiga to'y yuborilgan va "non sindirar" yoki "patir sindirar" udumiga tayyorgarlik ko'rilgan. Shundan keyin "non sindirar" udumi o'tkazilgan va qiz "boshi boylangan" hisoblanadi. Shundan keyin yigit qizning, qiz esa yigitning qarindoshlariga ko'rinmaslikka harakat qilgan, bu udum "kuyov qochuv", "kelin qochuv" deb atalgan. To'ydan avval kelin-kuyovning qarindoshlaridan "qochishi" odati matriarxat, ya'ni ona urug'boshi bo'lgan davrlarga xos nikoh marosimlarining qoldiq holda saqlanib qolgan ko'rinishi hisoblanadi.

Surxon vohasi aholisining sovchilik bilan aloqador urf-odat, irim-sirim, rasm-rusum, aytim hamda qo'shiqlari xalqimizning serpushtlik va serfarzandlik g'oyasi bilan bog'liq qadimiy e'tiqodiy qarashlari asosida kelib chiqqan.

Bunday sovchilik bilan bog'liq udum, irim-sirim va urf-odatlar respublikamizning boshqa viloyatlarida ham saqlanib qolgan. Bu urf-odatlar xalq og'zaki ijodi namunalariga, jumladan, xalq dostonlariga ham singib ketgan. Dostonlarda sovchilik marosimi qanday aks etganligi haqida tadqiqotimizning keyingi boblarida fikr yuritamiz. Bu odatlarning barchasi mustahkam, sog'lom va ahil oila qurishga qaratilgan. Boisi qayerdagi yaxshi oila bunyod etilsa, o'sha yerda tinchlik, totuvlik, baxt-saodat va osoyishtalik bo'ladi. Bunday oilada ulg'aygan farzandlar esa, albatta, el-yurt ishiga doim tayyor, Vatanga sadoqatli bo'ladilar. Shuning uchun ham hamma zamonlarda oila muqaddas qo'rg'on hisoblangan. Boshqacha qilib aytganda, oila sadoqat manzili, baxt koshonasidir.

Xalqimizning ma'naviy dunyosini o'stirish, shaxsiy ehtiyojlarni to'la qondirish, barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatning asosiy faktorlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o'tmishda yaratilgan, xalqimizning oltin merosiga aylangan va uzoq asrlar davomida

xalqimizga estetik va ma'naviy kuch bag'ishlab kelayotgan xalq og'zaki ijodining eng yaxshi va badiiy yuksak durdonalarini o'qib-o'rganish, ularni tadqiq etish eng muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, asrlar davomida og'izdan og'izga o'tgan, kuylangan, sayqallangan xalq og'zaki ijodi namunalarining ko'p umrlik janrlaridan biri xalq dostonlaridir. Dostonlarda ona – Vatanni chet el bosqinchilaridan muhofaza etish, sevgan yorini o'zga yurtidan ko'p qiyinchiliklar, azob-uqubatlar bilan olib kelish, ozod, obod va baxtiyor hayot haqidagi xalq orzu-umidlari kuylanadi.

Dostonlarda tasvirlanadigan voqea-hodisalar turli fantaziyalar bilan bo'rttirib ko'rsatilsa-da, insonning real hayotidan, kundalik voqealardan chetga chiqilmaydi, balki o'sha hodisalar zaminida ijodiy laboratoriyada qayta ishlanadi, bo'rttiriladi, afsonaviy holatda ifodalanadi. Garchi baxshi o'zi kuylayotgan doston mazmunini, undagi voqealarni uzoq o'tmishda yuz bergan deb atasa ham, undagi asosiy masalalarni o'z davri, yashash muhiti, geografik sharoitidan kelib chiqib, kundalik talab va ehtiyojlar bilan bog'laydi. Lekin xalq dostonlarining ildizlari O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyatiga borib taqaladi. Buni o'zbek xalq dostonchiligida "Go'ro'g'li" nomi bilan bog'liq bo'lgan turkum dostonlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu turkumga kiruvchi dostonlar bizga qirqdan ortiq nomda ma'lum. O'zbek dostonchiligida xoh katta, xoh kichik, xoh mashhur bo'lgan, xoh nomi ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan biron dostonchi yo'qki, uning repertuarida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridan birortasi bo'lmasin. "Go'ro'g'li" dostonlari xalqimiz orasida juda keng tarqalgan.

"Misqol pari", "Gulnor pari", "Avazxon" dostonlari ham "Go'ro'g'li" dostonlari turkumiga mansubdir. Bu har uchala doston ham mashhur xalq dostonchisi – Muhammadqul Jomurod o'g'li Po'lkandan yozib olingan.

"Misqol pari" bilan "Gulnor pari" dostonlari xalqimizning sevimli epik qahramoni – Go'ro'g'lining uylanishiga bag'ishlangan bo'lsa, "Avazxon" dostoni

esa befarzand Go'ro'g'lining uzoq Xunxor mamlakatidan Avazxonni afsonaviy Chambil mamlakatiga olib kelishi va o'ziga farzand qilib olishiga bag'ishlangan.

“Misqol pari” dostoni Go'ro'g'lining Misqol va Gulnor parilarga oshiqi beqaror bo'lishi bilan boshlanadi. Shuni aytib o'tish kerakki, bu dostonga qadar Go'ro'g'li Yunus pariga uylangan va afsonaviy Vayangan shahridan Hasanxonni olib kelgan edi. “Gulnor pari” bilan “Misqol pari” dostonlarida bir vaqtning o'zida ikki mavzu ishlangan. Ularning biri uzoq yurtdagi go'zalga qahramonning uylanishi va ikkinchisi vatan mudofaasi mavzuidir. “Avazxon” dostonida xalqimizning epik qahramoni – befarzand Go'ro'g'lining uzoq eldan o'ziga farzand olib kelishi ishlangandir. Bu mavzularning barida ham asosiy g'oya qahramonlikni tarannum etishdan iboratdir.

Dostondagi ikkinchi mavzu – vatan mudofaasi mavzusining o'rin olishi asarda yaxshi ishlangan do'stlik motivining barqaror va mustahkam o'rin egallashiga sabab bo'lgan. Bunda Hindistonga qilinadigan safar vaqtida va, shuningdek, Hindistondan qaytib kelinayotganda, Chambilga bostirib kelgan chet el bosqinchilariga qarshi jang tasviri oldidan, Afg'onistonda Go'ro'g'lining to'xtashi, bu yerda Abdi Otaliqning unga nisbatan mehribonlik va mehmondo'stlik ko'rsatishi dostonning umumiy g'oyaviy yo'nalishini ochib berishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Go'ro'g'lining Hindistonga qilayotgan safari vaqtida uning yo'li Afg'oniston orqali o'tadi. Katta lashkar kelib qolganini eshitgan Abdi Otaliq o'z yurtining mudofaasi haqida o'ylaydi. U askar to'playdi. Hushyorlikni qo'ldan boy bermasdan, u bu lashkarning nima maqsadda kelganini aniqlash uchun kelgan lashkar tomoniga elchi yuboradi. Kelgan lashkarning Afg'onistonga hech qanday zarari yo'q ekanligini bilib, Abdi Otaliq Go'ro'g'lini o'z eliga mehmonga taklif etadi. Go'ro'g'li Afg'oniston podshosi Abdi Otaliq bilan do'st bo'lib qoladi. Bu bilan eposda Go'ro'g'lining odil hukmdor ekanligi, uning Gulnor parini Chambilga olib ketishdan o'zga bosqinchilik, talonchilik niyati yo'q ekanligi muntazam

ta'kidlanaveradi. Bu g'oya asarda mustahkam o'mashib olgan. Masalan, Go'ro'g'li Afg'onistonga kelib yetguncha ham ko'pgina ellar, qishloqlarni oralab o'tib boradi. Ammo Go'ro'g'li va uning lashkari hech kimning hech narsasiga tegmay, hech kimga ziyon-zahmat yetkazmay, yo'lida davom etadi. Buning sababi shuki, Go'ro'g'li bu safarga faqat Gulnor parinigina deb chiqqan. Uning bundan bo'lak maqsadi yo'q. Boshqa ellarni talash yoki ziyon-zahmat yetkazish, Go'ro'g'li uchun begona tushuncha.

Go'ro'g'liga faqat va'dalashgan go'zal – Gulnor pari kerak. Go'ro'g'li Qong'ar tog'ida Gulnor pari bilan uchrashganidan keyin asarda olg'a surilgan asosiy masala hal bo'lgan edi. Biroq bu o'rinda shunday vaziyat yuzaga keladiki, Go'ro'g'li o'zi istamagan holda Toyhindiga qarshi jang qilishga majbur bo'ldi. Sababi, Toyhindi o'z lashkari bilan Go'ro'g'li ustiga bostirib keladi. Uning maqsadi Gulnor parini Go'ro'g'liga bermaslik, uning tushunchasi bo'yicha qora xalqdan chiqqan “yetimak”ning adabini berib qo'yish edi. Dostonchilikda ma'lum maqsadni ko'zlagan epik qahramon adolatsizlik qilayotgan dushmanga qarshi kurashishi va unga zarba berishi kerak. Go'ro'g'li ham adolatli urushdan o'zini chekkaga tortmaydi. Toyhindi – kuchli raqib. Bunday dushmanga qarama-qarshi turgan Go'ro'g'li ham asil bahodir va mohir sarkarda. Undan tashqari, Go'ro'g'li bu kurashda hindistonlik o'z hamfikrlariga ega. Bunday hamfikrlardan biri Simin vazirdir. Simin bu kurashda Go'ro'g'li tomonga o'tib, uni qo'llab-quvvatlaydi. Urush Go'ro'g'li uchun muvaffaqiyatli yakunlanadi va jang maydonida o'ldirilgan Toyhindi taxtini Simin vazir egallaydi. Chunki Simin adolat egasi va xalqparvar odam. U noo'rin qon to'kilishiga qarshi kurashar ekan, bu bilan u umumxalq manfaatini ko'zlaydi.

“Avazxon” dostonida ham voqealar asosan “Gulnor pari” dostoniga yaqin. Agar “Gulnor pari” dostonida maqsad uzoq yurtdan qiz olib kelish bo'lsa, “Avazxon” dostonida uzoq yurtdan o'g'il farzand olib kelishdan iborat. Biroq bu dostonidagi umumiy tafovut shundan iboratki, bunda asarning bosh qahramoni Go'ro'g'li o'z maqsadini amalga oshirishda harbiy kuchga emas, balki harbiy

hiylaga suyanadi va Avazni Xunxor elidan hiyla ishlatish yo'li bilan olib chiqib ketadi. Avaz Go'ro'g'lidan qahramonlik ko'rsatishni talab qilgandan keyin u jangga kiradi va Xunxor podshosining qo'shinlarini yengadi.

O'zbek xalq dostonchiligida motivlarning muayyan bir tartibda joylashib sujetni yuzaga keltirishida motirovkaning ahamiyati juda katta. Bu motirovkalarning obrazlar talqini masalasiga ta'siri ham ulkan. Masalan, "Go'ro'g'li" turkumiga kirgan dostonlarning ko'pchiligida Go'ro'g'lining qirq yigitining ishlari bahodirlikning ajoyib timsoli sifatida talqin qilinadi. "Gulnor pari" dostonida ham xuddi shunday holni kuzatamiz. Bunda Saxmon polvon, Soqibulbul, Shodmon mergan, Temirxon, Hasanxon va boshqalarning qahramonligi dostonchi tomonidan ulkan ko'tarinkilik bilan kuylanadi va bu pahlavonlar o'rtasidagi o'zaro do'stlikka alohida ahamiyat berilib, bu do'stlik chin qalbdan, g'oyatda katta simpatiya bilan tasvir etiladi. "Avazxon" dostonida esa biroz o'zgacha holatni uchratamiz. Bu asarda Go'ro'g'li avvaliga Avazxonni olib kelish uchun Hasanxon boshliq qirq yigitni yuboradi. Ammo Xunxor eliga yaqinlashib borilganda To'lak botir (u ham qirq yigitning biri) qo'rqqoqlik qilib orqaga qaytmoqchi bo'ladi. Qirq yigitning ko'pchiligi endi ikkilanib qoldi. Dostonchining tasviri bo'yicha yigitlar ichida eng dovyurak va qahramoni Saxmon polvon ham birdamlik yuzasidan orqaga qaytmoqchi bo'lgan yigitlarga qo'shiladi. Hasanxon bu yerda yakkalanib qoladi. Shunday qilib, yigitlar oldiga qo'yilgan vazifa bajarilmay qoladi. Hasanxon ham orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Mana bu o'rinda ko'rinib turibdiki, qirq yigit bilan Hasanxon o'rtasida kelib chiqqan ko'zga ko'rinmas kelishmovchilik To'lak botirning qo'rqqoqligi bilan yuzaga chiqariladi. Bu, eng avvalo, voqealarda Go'ro'g'lining faol ishtirok etishini ta'minlash uchun qilingan bir badiiy usul. Bu yerda qirq yigitning begona yurtga kirishga yuragi betlamagani motirovka sifatida olingan va qirq yigitni baholashda o'zgacha sharoit yuzaga kelgan. Endi ularni "Gulnor pari" dostonidagidek baholash yo'qoladi. Demak, motirovka bir dostonda ijobiy talqin qilingan biror

obraz yoki obrazlar guruhini boshqa bir dostonda salbiy talqin qilishga ham olib kelishi mumkin ekan.

“Misqol pari” dostonida ham bir qator yorqin obrazlar bor. Bular Misqol pari, Gulnor pari, Gulrang pari, Xonim pari, Ahmad pari va hokazo. Bularning hech birini salbiy obrazlar qatoriga qo’shishga asos yo’q. Bular ichida ayniqsa o’z taqdiri uchun kurashgan Misqol pari va qizining istagini tushungan, garchi asarda birmuncha o’zgacha talqin qilingan bo’lsa-da, yaxshilikka qarshilik ko’rsatmay, aksincha unga ko’makdosh bo’lgan Misqolning otasi Ahmad pari obrazlari jozibalidir.

Folklor asarlarining juda ko’pchiligida bo’lgani kabi biz fikr yuritayotgan dostonlarda ham yomonlik ustidan yaxshilikning, razolat ustidan adolatning g’alaba qilishi kuylangan va xalqimizning ezgu orzu-armonlari o’z aksini topgan.

Dostonlarda xalq maqollari, o’zbek xalq poetik ijodiyotida juda katta o’rin egallovchi mubolag’a usulidan, badiiy ifoda vositalarining o’xshatish, sifatlash, istiora, litota kabi boshqa hamma turlaridan samarali foydalaniladi. Bunday badiiy ifoda vositalari tinglovchilarning keng auditoriyasi uchun tushunarli bo’ladi.

Chunki bunday badiiy ifoda vositalari bevosita xalq hayotidan olinadi, u bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Dostonning badiiyligi uning xalqchilligi xususiyatlarini yanada oydinlashtiradi.

Atoqli xalq baxshisi Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olingan “Balogardon” shoir kuylagan eng yaxshi dostonlardan biridir. Uning markaziy sujet chizig’ida Avaz asosiy o’rin tutadi. Asarning kompozitsion tuzilishi shunday qurilganki, undagi voqealar rivojida, albatta, Avazxon qatnashishi va u qahramonliklar ko’rsatishi talab qilinadi. Arazlab Eram bog’iga ketib qolgan Yunus pari va Misqol parini va G’irotni Avazdan bo’lak hech kim qaytarib olib kela olmas edi. Dostondagi voqealar esa Go’ro’g’lining qatnashmasligini taqozo etadi.

Bu dostonda bir-biri bilan uzviy bog'liq uchta sujet chizig'i mavjud. Birinchisi Go'ro'g'lining xotinlari arazlab ketgani va u bilan bog'liq voqealar, ikkinchisi, Avazxonning Eram bog'iga borishi, ko'p qiyinchiliklar natijasida Yunus pari bilan Misqol parini topishi, zindonga tushishi va u bilan bog'liq hodisalar, uchinchisi esa Zangar shahriga Orzigulni olib kelish uchun borishi va, nihoyat, Chambilga kelib, Go'ro'g'lini xushnud etishidir. Doston sujetidagi bu voqealar Avazxondan g'oyat katta mardlikni, jasurlikni va aql-u zakovatni talab qiladi.

Usmon Mamatqul o'g'lidan yozib olingan "Shohdorxon" dostoni ham o'zining yuksak badiiyligi bilan diqqatga sazovordir.

Dostondagi voqealar rivojida Avazxon yetakchi o'rin tutadi. Asar Saroy shahri podshosi Shohdorxonning Chambilga yovuz niyat bilan qo'shin yuborishi, ularning Go'ro'g'li tomonidan quloq-burunlarining kesib haydalishi, Shohdorxonning bu holatni ko'rib hayratlanishi, Go'ro'g'lining esa ular orqasidan katta qo'shin yuborishi, yana ularga ishonmay o'zining ham kelishi, tog'asi Ahmad Sardorning arazlab Chambilga ketishi va uning bu yerda amalga oshirgan jirkanch ishlari, Go'ro'g'lining Shohdorxon bilan tinch yashashga kelishishi va Chambilda adolatning tantanasi bilan yakunlanadi.

"Go'ro'g'li" turkumiga kirgan "Bo'tako'z" dostoni ham o'zining tabiati, nafosati, yuksakligi bilan ajralib turadi. Bu asarda ham Avaz obrazi asosiy o'rin tutadi.

Dostonda turkman boylaridan Oqchishboyning to'y qilishi bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Unda boyning qizi Bo'tako'zning qahramonligi, jasurligi, hatto, Avazxon va Hasanxondan ham ustun kelishi go'zal misralarda bayon etiladi. "Bo'tako'z" dostoni o'zining badiiyligi va ta'sir kuchi bilan ham alohida xarakterlanadi.

Xullas, xalq dostonlari haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin. Biroq bizning ushbu kichik tadqiqotimizda dostonlar haqida batafsil fikr yuritishning imkoni yo'q. Shuning uchun biz dostonlardagi sovchilik bilan bog'liq odatlarga to'xtalib, ularni tahlilga tortishga harakat qildik.

3. O'zbek xalq dostonlarida sovchilik bilan bog'liq udumlar.

Insoniyat tarixida ilk oila barpo bo'libdiki, uning jamiyat qonunlarida qayd etilmagan, ya'ni yozilmagan qoidalari to hanuz ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelmoqda. Shunga ko'ra otaning o'g'il, onaning qiz farzandlar oldidagi burchlari o'zaro taqsimlangan. Qolaversa, Buyuk Yaratuvchi tomonidan ilohiy kitoblarda bot-bot odam bolalariga eslatib turiladigan muqaddas vazifalardan biri ham ana shu. Keyinchalik dunyo taraqqiyot sari yuz tutib, jamiyatlar, Konstitutsiyalar, qonunlar majmui asosida boshqariladigan bo'lgach ham, bosh masala – oilalardagi musaffo muhit va totuvlikni qaror toptirishdan iborat bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, bizning o'zbekchiligimizda “Ota rozi –xudo rozi”, “Ona rozi – payg'ambar rozi” degan purhikmat iboralar urf-odatlarimizning asosiy negativini tashkil etadi. Shu bois otalar mumkin qadar hattoki, darg'azab bo'lganlarda ham bolalarini qarg'amaslikka, duoibad qilmaslikka intilib yashaydilar. Chunki bu tamoyilda soatlab gapirib ham tavsiflab bo'lmaydigan sir-u sinoat mavjud. Har bir ota-ona farzand kamolini ko'rmoqni istaydi. Asrlar osha e'zozlab kelingan ana shunday qadriyatlarimiz haqida ko'p gapirish mumkin.

Boisi bu qadriyatlarimizda xalqimizning o'tmishi, milliy urf-odat va an'analari mujassamlashgan. Shuning uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda xalq og'zaki ijodiga, uni o'qib-o'rganishga bo'lgan munosabat o'zgardi. Natijada xalq og'zaki ijodining eng noyob durdonalari yana xalqimiz kitob javonlaridan o'rin oldi.

Xalq og'zaki ijodiga Yurtboshimiz katta baho berib: “Xalq og'zaki ijodining eng noyob durdonasi bo'lmish “Alpomish” dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti, desak, tog'ri bo'ladi. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib,

o'zligini doim saqlagan el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, do'st-u yorimizni, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi²⁴,– deb bejiz aytmagan.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz “Alpomish” dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot.

Chunki “Alpomish” dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

Shu o'rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan-bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, “alp” degan unvonga ega bo'ladi. Alp–degani hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri Alpomish timsolida biz vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

²⁴I.Karimov. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T., 2008, 32-33-betlar.

Shubhasiz, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi. Zero “Alpomish” – o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir”.²⁵

“Alpomish” dostonida xalqimizning go’zal an’analari, turli urf-odat va irim-sirimlari ham o’z ifodasini topgan. Ana shulardan biri sovchilik bilan bog’liq marosimdir. Sovchilik marosimi qadim-qadimdan xalqimiz orasida yashab kelgani ma’lum. Bolajon xalqimiz oilada farzand dunyoga kelishi bilan qiz bo’lsa uni yaxshi xonadonga uzatish, o’g’il bo’lsa unga tagli-taxtli, yaxshi oilaning qiziga uylantirib qo’yish haqida qayg’uradi. Ota-onaning bu yaxshi niyati bola tug’ilgandayoq namoyon bo’ladi. Bunday odatlardan biri “etak yirtar” va “beshik kerti” marosimidir. Bu qadimiy marosim “Alpomish” dostonida ham o’z ifodasini topgan.

Bola tug’ilishi bilan ularni bir-biriga atab qo’yish udumi qiz va yigitni yoshligidan boshlab ezgu niyatlar bilan himoya qilish ham demakdir. Chunki bu bilan oilalar yaxshi qiz va yigit begona bo’lmasin degan niyatda shu ishga qo’l uradilar.

“Alpomish” dostonining Qora baxshi Umirovdan yozib olingan variantida bolalarni “etak yirtish” qilib, unashtirib qo’yish udumi shunday tasvirlangan: “Xizr Boybo’rining o’g’liga Hakimbek deb, Boysarining qiziga Barchinoy deb ot qo’ydi. Hakimbekning iyniga shippak bilan urdi, besh panjaning izi dog’ bo’lib qoldi. Ikki go’dakni ikki tizzasiga olib, ikkisiga belgi soldi, Hakimbek bilan Barchinoyning orqa etagini birga ushlab yirtadi, ikkovini “etak yirtish” qilib unashtirib qo’ydi”.²⁶

²⁵ Prezident Islom Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nutqi. “Xalq so’zi” gazetasi, 1999-yil 9-noyabr.

²⁶ Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma. I-kitob. T. 2001, 35-36-betlar.

Bu bilan Xizr odamlarga endi Barchin egalik bo'ldi, endi uning boshi bog'landi degan xabarni yetkazib qo'ymoqchi bo'lgan.

Fozil Yo'ldosh o'g'lidan Mahmud Zarifov yozib olgan, birinchi marta Hamid Olimjon nashrga tayyorlagan, keyinchalik Hodi Zarif va To'ra Mirzayevlar qayta nashrga tayyorlagan "Alpomish" dostoni eng mukammal dostonlardan hisoblanadi. Doston burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonboy degan o'tganligi, undan Alpinboy, Alpinboydan Boybo'ri va Boysari degan o'g'il farzandlar paydo bo'lganligi haqidagi hikoyadan, ularning farzandsizlik jabrini chekkanlari xabaridan boshlanadi.

Kunlardan bir kun o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida bir chupron to'y bo'ldi. Xaloyiqni, elatlarni to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiq yig'ildi. Biylar ham to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: "Mazmuni bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi", – deb otini o'zi bog'lab, ma'rakayi majlisga kelib o'tira berdi.

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi; osh tortdi, suzgan tovoqni choshlamadi; osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar –biylar aytdi:

- Bizlar o'n olti Qo'ng'iro'tning boyi ham, shoyi bo'lsak bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar, ostimizga libosni tashlar edinglar, bu dafa bizdan nima ko'tohlik o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?

Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida poyga betdan turib bir chapanitob boyvachchasi aytdi:

- Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi,

og'ziga odam kirib ketadi. Sening bundan bu yoqdagi yeydiganing oshning keti-beti bo'ladi. Biz sening davlatingdan bo'lib olamizmi?!²⁷

Bu gapni eshitgan Boybo'ri va Boysari chupronga sakson tilla tashlab turib uyiga ketishadi. Ularning ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ko'rinadi. Boybo'ri Boysariga: “Qariganda bunday gaplarni eshitish juda og'ir, farzand tilab olmaymizmi?”– deb maslahat soladi. Boysari akasiga “Tortib olib bo'lmasa, o'g'irlab olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bizga bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!”— deydi. Boybo'ri: “Shu yerdan Shohimardon pining ravzasi uch kunlik yo'l kelar ekan, har kim borib tunar ekan, davlatalab davlat tilar ekan, farzandtalab farzand tilar ekan, oxirattalab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kiShi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, narz-u niyozimizni bersak, Shohimardon pining ravzasini tunab, bir farzand tilab ko'rsak”,²⁸ – deydi. Ular Shohimardon pining ravzasiga borishib olib borgan narz-u niyozini shayxlarga ulashib qirq kun o'sha yerda tunaydilar. Qirq kun tugagach ravzadan ovoz keladi: “Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas, egiz berdi, Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi, egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bollaringni otini o'zim qo'yib kelaman”.²⁹

Bundan xursand bo'lgan aka-uka o'z yurtlariga ketishib, qirq kecha-yu qirq kunduz el-yurtga to'y berishadi. Beva-bechoralarga muruvvat ko'rsatishadi. Bu borada Boybo'ri va Boysarining xotinlari yukli bo'lishadi. Oradan oylar o'tib, farzandlar tug'iladi. Bundan xursand bo'lgan boylar har tarafga xabar yuborib to'y-tomoshalar qilishadi. Shunday qilib bu xabar “Hamma mamlakatga ovoza bo'lib, elining, yurtining katta-kichiklari qulluq bo'lsinga kelib, do'stlari Shodmon bo'lib, dushmanlari g'amgin bo'lib, ilojini topolmay, g'amgin bo'lsa ham, hech kimga

²⁷ Alpomish. T., 1979, 5-6-betlar.

²⁸ Alpomish. T., 1979, 6-bet.

²⁹ O'sha joyda, 7-bet.

yuragini yorolmay, bular ham qulluq bo'lsinga kela berdi. O'n olti urug' Qo'ng'iro't urug'ining odamlari, eshitgan xaloyiq gurros-gurros bo'lib kela berdi.³⁰

To'y qirq kecha-yu qirq kunduz davom etdi. Qirqinchi kuni biylarga qarab uzoqdan bir qalandar kela berdi. "Biylarning esiga tushdi: Ravzada "Qalandar bo'lib borib o'zim otini qo'yib kelaman" degan ovozni eshitgan edi. Shunday qarasa, yaxshi nurli qalandar mast bo'lib, shul majlisga qarab kela berdi. Xaloyiq ham ko'rdi: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir, o'zga kishilarga bu qalandarning holi-ahvoli ma'lum emas... Biylar o'rnidan turib, peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab keldi, farzandlarning uchovini ham olib kelib, pining etagiga soldi. Shohimardon piri Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi, o'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'och oyim qo'ydi; Boysarining qizining otini oy Barchin qo'ydi. Ana shunda Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshkirti qilib." Bu ikkovi eri-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin, omin ollohu akbar", – deb fotihani betiga tortdi. Piri turib jo'nab ketdi. Shu yerda o'tirgan xaloyiq: "Biylarga xudo bergan ekan, pining duosini olgan ekan", – deb gaplashib qoldi. Balki shu yerda o'tirgan katta-kichiklarning ham mehri qadimgidan ziyoda bo'ldi".³¹

Bundan ko'rinib turibdiki, "beshik kerti", "etak yirtar" kabi udumlar xalqimizning eng qadimgi urf-odatlaridan hisoblanadi. Agar "Alpomish" dostonining 1000 yilligi nishonlanganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu odat xalqimiz orasida ming yillardan ziyod vaqtdan buyon yashab kelayotgan ekan. Atoqli dostonchi Fozil Yo'ldosh o'g'li xalqimizning bu urf-odatini yaxshi bilgan va uni dostonga ustalik bilan kiritgan.

Dostonchi Hakimbekni mehr bilan tasvirlaydi. Uning obrazi ustida qunt bilan ishlagan. Buni birgina Hakimbekning yetti yoshga kirishidagi lavhadan ham

³⁰ O'sha joyda, 8-bet.

³¹ Alpomish. T., 1979, 8-bet.

bilishimiz mumkin: “Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o’n to’rt botmon birichdan bo’lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o’n to’rt botmon yoyni qo’liga ushlab ko’tarib tortdi, tortib, qo’yib yubordi. Yoyning o’qi yashinday bo’lib ketdi. Asqar tog’ining katta cho’qqilarini yulib o’tdi, ovozasi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlari: “Bu bola zo’r bo’pti, nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo’lolmaydi, yetti yashar bola shunday ishni qilami?!”– deb xafa bo’lib yotdi. Do’stlarining vaqti xush bo’lib yurdi.

Shunda barcha xaloyiq yig’ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to’qson alp o’tdi, alplarning boshlig’i Rustami Doston edi, oxiri Alpomish alp bo’lsin”. Oxiri Alpomishbek alp bo’lib, to’qson alpning biri bo’lib, sanaga o’tib, alplik otini ko’tarib, yetti yoshida Alpomish ot qo’yildi. Yetti yoshida yoyni ko’tarib otgani uchun Alpomish alp atandi”.³²

Doston qahramoni Hakimbek, ya’ni Alpomish juda ko’p mardliklar ko’rsatadi. U o’z yurtining mustaqilligini ta’minlash uchun kurashadi. U sevgilisi Barchinni qalmoqlar qo’lidan qutqazish uchun barcha sinovlarga bardosh beradi, ko’p qahramonliklar ko’rsatadi. Alpomishga do’sti Qorajon va boshqalar yordam berishadi.

Dostonda Barchinoy Boysarining mehribon farzandi, Alpomishning sadoqatli yori sifatida mahorat bilan talqin qilingan.

Dostonni o’qir ekansiz, o’zbek xalqining qadim zamonlardan buyon o’ziga xos fazilatlarga ega ekaniga guvoh bo’lasiz. Jumladan, dostonda har qanday mushkul vaziyatda ham inson o’z aql-idrokini yo’qotmasligi, biror qarorga atroflicha mulohaza yuritgan holda kelishi lozimligi uqtiriladi. Insondagi mardlik va jasorat alohida qadrlanadi, aytilgan so’zning qimmatini yuqori baholanadi. Zero, o’z so’zining ustidan chiqadigan mard insongina bunday fazilatlarning qadriga yetishi mumkin.

³² Alpomish. T., 1979, 9-bet.

“Alpomish” dostonining so’nggi qismlari alohida diqqatga sazovor. Alpomish o’z yurtiga qaytgach, darhol hammaga kelgani haqida jar solmaydi. O’zini tanitmagan tarzda butun tanish-bilishlari, qarindosh-urug’lari bilan birma-bir uchrashib chiqadi. Shu usul bilan ularning o’ziga nisbatan bo’lgan haqiqiy munosabatlarini bilib oladi. Alpomish birovlarining yolg’on-yashiq gaplaridan kelib chiqib, odamlarga baho berishni istamaydi. Shaxsan o’zining kuzatishlariga ishonib ish yuritadi.

Dostonda insonning ma’naviy qiyofasini belgilovchi ezgulik, haqiqiy odamlarga mehribonlik, diyonat, chidamlilik kabi oliy fazilatlar haqida xalqning fikrlari ifodalanganini ham his etamiz.

Dostonda ijobiy qahramonlarning fazilatlarini salbiy qahramonlar bilan munosabatga kirishganlarida, ularga qarshi kurashganlarida ravshanroq seziladi. Bu o’rinda Boybo’ri, Ko’kaldosh va Surxayilni alohida qayd etish lozim.

Dostondagi eng muhim xarakterli xususiyatlardan biri unda o’zbek xalqining sovchilik bilan bog’liq udumlariga bir necha bor murojaat etilganligidir. Chunonchi, biz dastlab sovchilik odatini Shohimardon pining Hakimbek va Barchinoylarni “beshik kerti” qilishida ko’ramiz.

Boysari akasidan arazlab o’z xesh-u aqrabolari bilan Qalmoq yurtiga kelib o’rnashib qoladi.

Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo’r kampir edi. Bu kampirning yetti o’g’li bor edi, yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko’kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko’kaman der edi, Ko’kqashqa der edi, Boyqashqa der edi, Toyqashqa, Qo’shquloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tir qilgani Qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni

olib kelib, to'qson alp qilib, Kashal g'oridan joy berib, bularni to'qayistonda boqib yotar edi".³³

Kunlardan bir kun shu kampir yoniga to'qqiz nafar qarindosh kampirlarni olib o'zbeklar yashaydigan joyga o'tlanadi. Uni yo'lda ko'rib qolgan Qorajon enasiga qarab shunday deydi:

Quloq solgin Qorajonning tiliga,
Ena, qaytgin, borma Chilbir cho'liga,
Oralama o'zbeklarning eliga.
Ena, sen ham qaytgin kelgan yo'lingga,
So'z aytarman, ena, senga bir alvon,
Ena, qaytgin, borma Chilbir cho'lidan.
Mening so'zim, ena, og'ir olmagin,
Bu gaplarni, ena, hazil bilmagin,
Xayolingni har tarafga bo'lmagin,
Qaytgin, ena, u boylarga bormagin,—³⁴

deb enasini yo'ldan qaytaradi, unga "Bir shumlikni, ena, o'ylab yuribsan",— deydi.

"Enasi bu so'zni eshitib Qorajonning achchig'i kelganini bilib, Qorajonning aqlini olib, ko'nglidagi gapini bilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Xudoyim saqlagay bandani omon,
Turib o'yla, yaxshi yo'lga boraman.
O'zbeklarga seni kuyov qilaman,
O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,
Atashtirib ro'mol berib kelaman.
Yo'ldan urma, Chilbir cho'lga borayin,

³³ Alpomish. T., 1979, 31-bet.

³⁴ Alpomish. T., 1979, 33-bet.

Nazar solib o'zbeklarni ko'rayin,
O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,
Boshi bo'shmi, deyin avval so'rayin.
Yaxshi qizlar agar boshi bo'sh bo'lsa,
Kelin qilib biror ro'mol o'rayin.
Uylantirsam, senga xabar berayin,
Borishli, kelishli bo'lib yurayin,
O'n uch mahramingman yo'lda turibsan,
Tenging yo'q, jon bolam, bo'ydoq yuribsan.
Enangning xayolin yomon bilibsan,
Ko'nglingga necha so'zin olibsan.
Meni qaytarsam, deb xayol qilibsan.
Meni bilsang sening uchun boraman,
Ening boshdan-oyog'ini ko'raman.
Senga lozim bir qiz topib olaman,
Kenjatoyim, seni yaxshi ko'raman,
Men birovga seni kuyov qilaman,
Ko'nglimda borini aytib beraman,
Enang men-da, yaxshilikni ko'raman,
Sening uchun ko'p xizmatlar qilaman.
Bod olma enganing aytgan so'zidan,
Obberay o'zbakning suluv qizidan,
Kuyov bo'p sizilib tursang, Qorajon,
Bolam, tomir bo'lsak o'zbak elidan.³⁵

Bu so'zni eshitgan Qorajonning dimog'i chog' bo'lib, enasidan ko'ngli to'lib, unga javob beradi. Kampir yo'lga o'tlanadi.

Ushbu parchada xalqimizning bir nechta odatlari mavjud. Birinchisi sovchilik marosimi, ya'ni kampir sovchi bo'lib bormoqchi. Ikkinchisi sovchilikka

³⁵ Alpomish. T., 1979, 34-bet.

borib, atashtirib, ro'mol o'rab kelmoqchi. Shu bilan birga bu parchada qizlarning boshi bog'langanni-yo'qmi, ya'ni ular unashtirib yoki beshik 33kerti qilib qo'yilganmi-yo'qmi shu haqda ham gap ketmoqda. Shuning uchun ham kampir “Yaxshi qizlar agar boshi bo'sh bo'lsa, Kelin qilib biror ro'mol o'rayin”, – deydi.

Shuningdek, to'ygacha va to'ydan keyin borish-kelish qilish, qarindoshlik rishtalarini ulash haqida ham gap ketyapti. Shu bilan birga u odamlardan bo'lajak kelinni so'rab-surishtirish niyatida ham borayotganligini aytadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xalqimizning sovchilik bilan bog'liq bo'lgan “kavush yirtar”, “eshik supurdi”, “ro'mol o'rash” kabi odatlari juda ham qadimiy bo'lib, hozir ham xalq orasida yashab kelyapti.

“Alpomish” dostonida sovchilarning qizning uyiga kelgandan keyingi holati shunday tasvirlangan: “Mehmonlar ko'rishib o'tirdi. Boybicha mehmonlarga osh taraddud qildi, ziyofatga palov pishirib, damlab: “Endi mehmonlar bilan gaplashib o'tirayin”,– deb boybicha ham kelib o'tirdi. U yoqdan, bu yoqdan gap tashlashib, besh-to'rt og'iz gap boshlashib, shunda kampir boybichaga qarab, Shu qizingizning boshi bo'shmi, deb so'rab turgan edi:

Qozonda qaynagan shirboz to'shmidi,
Shu qizingning agar boshi bo'shmidi?
Boshi bo'shmi deyin, sendan so'rayin,
Kelin qilib biror ro'mol o'rayin;
Qorajonga atashtirib borayin.
Mehmon bo'lib biror guzarim tushdi,
Itin ko'p taladi, ko'p nasham uchdi,
Shul qizingni ko'rib ko'nglim xushdi /r/,
Albatta, qizingning bul boshi bo'shdi /r/.
Boybicha, eshitgin aytgan so'zimdi,
Ko'ngling bo'lib xafa qilma o'zingdi,
Kelin qilib ketay sening qizingdi,

Sening qizing Qorajonga lozimdi /r/.
Qizining boshida taralgan chochi,
Qorajon ham yigitlarning me'roji:
Mening aytgan gapim bunda bilsang-chi,
Qorajonim kuyov qilib olsang-chi,
Rasmi-qa'dang menga ma'lum qilsang-chi.
Nima deb amr etsang, ani berayin,
O'zbek boylar rasmingni so'rayin,
Qorajonning vaqtin xushlab turayin,
Qizingman ikkovin birga qilayin.
Oshiqning fahmidir qorong'i kecha,
Yig'lasang, holingga yig'lar bir necha,
Bu so'zima javob bergin boybichag.
Sening qizing tarzin ko'rdim oyim-a,
Qorajon ham yomon emas, bekbachcha,
Ikkovi ham o'ynab yursin har kecha;
Qizing bilan ro'zg'or qilsin o'lgancha,
Bu gaplarni hazil bilma, boybicha.
Bir olloga yetgay aning nolası,
Turgan yerim boyning kulbaxonasi,
Men bo'laman Qorajonning enasi.
Necha qizlar Qorajon deb intizor.
O'ziga teng ko'rmas bolam zo'rabor.
Sen qizingni bersang, ko'ngli xush bo'lar.
Sening qizing Qorajonman barobar,
O'ynab-kulsa bolam Qorajon shunqor,
Qorajonning aytgan qizi shunda bor,
Kelin qilib borsam ko'ngli topilar,
Necha mahram Qorajonga xizmatkor,

Shul qizingni sening bermog'ing darkor.³⁶

Bu so'zlarni eshitgan Barchinning onasi qizining boshi bo'sh emasligini, uni domot bobosining o'g'liga atashirib qo'yganini aytadi. Olti oylik yo'ldan Alpomish kelib elga qirg'in-barot solishini aytadi. Qalmoqlar Hakimbekka bas kelolmasligini aytadi. Biroq kampir aslo bo'sh kelmay Barchinning onasi bilan urishib-janjallashib ham oladi. Oldiga qo'ygan oshini yeb ham shashtidan tushmaydi. Aksincha, Qorajonning oldiga borib ko'rganlarining teskarisini aytadi. Buni dostonchi shunday tasvirlaydi:

“Qarasa, enasi kelyapti, enasini ko'rib, Qorajon: – Qalay, qalay, ena? Bo'ri bo'lib kelyapsanmi, tulki bo'lib kelyapsanmi? – dedi. Enasi aytdi: – Men borgan yerda ham tulki bo'lamanmi, bo'ri bo'lib kelayotibman, seni uylantirib, bu ko'ylaklarni quda-andalikka kiyib kelayotibman.

Qorajon aytdi:”Enam bizni ko'rganli yerdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi”, – Ena, bo'ri bo'lgandan gapir, – deb turibdi. Qilgan ishini bildirib kampir Qorajonga qarab, bir so'z deyapti:

Quloq solgin menday enang tiliga,
Oraladim musofir mazgiliga.
Mehmon bo'ldim Boysariboy uyiga.
Nazar qilib mazgiliga qaradim,
Kelin qilayin deb avval so'radim.
Boysarining yaxshi qizi bor ekan,
Oti Barchin, o'zi zulfakdor ekan,
Bir necha ko'rmoqqa intizor ekan.
Qirqin qizlar unga xizmatkor ekan.
O'n to'rt yashar ekan, ayni kamoli,
Boshida pirpirar lovdon ro'moli.
Oydayin barq urar aning jamoli,

³⁶ Alpomish. T., 1979, 37-38-bet.

Olamni balqitar tegsa shamoli,
Boysarining shunday qizi bor ekan.
Boybichani ko'p ag'darib so'radim,
Boshi bo'sh ekanin toza sinadim,
Senga atashtirib ro'mol o'radim,
Shu bugun qalliqqa borgin, Qorajon,
O'zbekning rasimi shunday bo'ladi,
Atashtirgan kuni kuyov boradi.
Shu bugun uyalib, bolam, bormasang,
Ertan sening vajing o'tmay qoladi.
O'zbek qizi tayin aynib qoladi.
Kechga qolma, jonim bolam, erta bor,
Suqsuroy degan bir sening yangang bor,
Kuyov kelsa, bo'larmiz deb xabardor.
Juda ham tayinlab qoldi ko'p qizlar,
Qanday bo'lsa, jonim bolam, erta bor.
Oti Barchin ekan, o'zi gajakdor,
O'ynab-kulib tarqar ko'nglingdan g'ubor.
Baxmal uyda senga qarar sanamlar,
O'zbek qizlar bari bo'lar xizmatkor.
Mahramingni olib, bolam, birga bor,
Enangning so'zini hazil bilmagin,
Sen panalab qorong'ida yurmagin.
Kuyovman deb sen uyalib turmagin.
Baxmal uy belgili, bolam, tikka bor,
Oting ushlab bari bo'lar xabardor.
Qo'ng'irot qizining bari yig'ilar,
Hammasi ham xotiningga xizmatkor.
Bolam, sening yoring bir mohi dilbar,
Jamollari aning oyga barobar,

Qanday bo'lsa kechga qolmay erta bor.³⁷

Ushbu parchada ham bo'lajak kelinning boshi bog'langan-bog'lanmaganligi, boshiga ro'mol o'rash kabi marosimlar bilan bir qatorda qalliq o'yini marosimi haqida ham so'z yuritiladi. Odatda sovchilar qizni unashtirib, boshini bog'lab kelgandan so'ng "qalliq o'yini" marosimi o'tkaziladi. Bunda kuyov kelinning uyiga borib qiz bilan uchrashadi. Dostonda xalqimizning ana shu qadimiy udumi haqida fikr yuritilgan.

Alpomish qalmoq yurtiga kelib, Qorajon bilan do'stlashgach, yana sovchilik bilan bog'liq marosim tilga olinadi. Alpomish Qorajonning uyiga mehmon bo'lib kelgach, Qorajonga: "Qorajon, bizning bunda kelib yotganimizni Boysari ne bilsin, sen Boysarinikiga tomon borib kelsang, qizini bizga beradiganday bo'lsa, sovchi bo'lib kelsang qanday bo'lsa, mening kelganimni bildirib kelsang", –deydi.³⁸

Qorajon bilan Barchin o'rtasidagi suhbatda ham sovchilik marosimi tilga olinadi. Qorajon: –Bizga otang bo'lmasa ham mayli, biz o'zing bilan gaplasha beramiz, biz ahmoq bo'lib, yo'l changitib, dam-badam kelib yurmaymiz. Sen tegadigan bo'lsang, u oladigan bo'lsa shul bo'ladi. Bekorga nimaga keladi. "Sovchilikning sha'ni shul, birato'la bitirib ketaman", –deb Barchinga bir so'z aytib turgan ekan:

Ostimda bedovim o'ynar yuz alvon,
Olmos po'lat belda, egnimda qalqon...
Sovchi bo'lib senga keldi Qorajon,
Ustingga kiyganing gulgun qirmizi,
So'zimni anglagin o'zbakning qizi,
Qoloq solib turdi Barchinning o'zi,
Atrofida turgan qancha kanizi.
Biznikida yotar davlatli shunqor,
Do'stimning otidir muna Boychibor.
Do'stim uchun bo'lib keldim xizmatkor,

³⁷ Alpomish. T., 1979, 41-42-betlar.

³⁸ Alpomish. T., 1979, 105-bet.

Har na so'zing bo'lsa, bizga ayta ko'r
So'zingni obborar Qorajon nomdor,
Sovchi bo'lib aytgan so'zim shul bo'lar.
Xayolingga boshqa gaplar kelmasin,
Bir nechalar seni yo'ldan urmasin,
Kelishimni dushman qalmoq bilmasin,
Meni qalmoq deb ko'nglingga kelmasin,
Hazil bilma Qorajonning tilini,
Xohlaysanmi biy bobongni ulini?
Har ne deganingni aytib boraman,
Qanday so'z so'zlasang, men ham bilaman,
Hozir o'zim yaxshi xizmat qilaman,
Nima deb so'rasang javob beraman,
Qanday desang, xonga aytib boraman.³⁹

Dostonda “qalliq o'yini” udumi ikkinchi marta ham tilga olinadi. Ya'ni poyga vaqtida Qorajon Alpomish nomidan qatnashib, poygaga ketganda, Alpomish Barchinning huzuriga borib, u bilan uchrashadi va tunab qolib, tong otganda yana o'toviga qaytib kelib hech narsa bilmaganday o'tiradi. Hakimbekka xalqimizning bu o'g'rincha uchrashuvi qiziq tuyiladi. U xalqimizdan qolgan odat ekan deb Barchinni ko'rgani boradi.

Dostonda Alpomish bilan Barchinning to'yi kuni nikohdan so'ng bo'lib o'tgan “kampir o'ldi”, “it irillar”, “choch siypatar”, “qo'l ushlatar” kabi marosimlar va aytimlar haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostonida sovchilik bilan bog'liq marosimlar va aytimlar ham nasriy yo'l bilan, ham nazm yo'li bilan berilgan. Albatta, bular baxshining san'atkorligidan, uning sovchilik bilan bog'liq udumlarimizni yaxshi bilishidan dalolatdir.

³⁹ Alpomish. T., 1979, 111-112-betlar.

Oila –inson tarbiyasi va uning kamolotida chuqur ma’noga va ahamiyatga ega. Negaki, u jamiyat ko’zgusi hisoblanadi. Agar oilada hayot sog’lom, fayz-barakali, baxtli-taxtli bo’lsa, jamiyat ham shu qadar shukuhli, shu qadar qudratli bo’ladi. Eng avvalo, farzandlarimiz ajdodlarga, nuroniy keksalarga hurmat-izzatni ana shu oila bag’rida o’z qalblariga singdiradilar. Shak-shubhasiz, bunday fazilatlar xalqimizning, Vatanimizning bebaho ma’naviy boyligi, farzandlarimizni ma’rifat va ma’naviyat sari yetaklovchi, kamolotga boshlovchi xislatlardir.

O’sib kelayotgan avlodning yetukligi ham, inqirozi ham oiladan boshlanadi. Agar oila barkamol, ota-onalar ma’naviyatli, qadriyatlarimizga e’tiborli va e’tiqodli bo’lishsa, bunday oiladan yomon farzand chiqmaydi. Aksincha, oila boshliqlari ma’naviy jihatdan qashshoq bo’lsa, bunday illatlar bola tarbiyasida ham noxush iz qoldiradi. Bola tarbiyasiga beparvolik, binobarin, oilaga beparvolik – jamiyatga beparvolikdir.

Qonun taqiqlay olmagan narsalarni or-nomus taqiqlay oladi, deb bekorga aytishmagan. Shuning uchun oilalarda hayo, insof-diyonat, e’tiqod va sadoqat, mehr-oqibat, muruvvat-shafqat hukmron bo’lsa, jamiyat hayoti ham shu qadar jozibali bo’ladi. “Hayo ketdi – balo ketdi”, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”, “Qars ikki qo’ldan chiqadi”, “Beparvolik – ming turli sitamlarning sababchisi” degan sharqona hikmatlar bejiz to’qilmagan-da.

Albatta, oila xalqimizning qadimiy urf-odatlaridan biri hisoblangan “beshik kerti”, “etak yirtar”, “kovush yirtar”, “ro’mol o’rar” kabi sovchilik bilan bog’liq udumlardan boshlanadi. Qadimdan xalqimiz orasida farzandlarini chaqaloqligidan bir-biriga atab qo’yish rasm bo’lgan.

Bu udumlar esa bir qator xalq dostonlarida ham qayd etilganligi bilan xarakterlidir. Masalan, birgina “Tohir va Zuhra” dostonini olib ko’raylik. Doston quyidagi boshlanma bilan boshlanadi: “O’tgan zamonda, el-u yurti omonda, anavi ko’ringan tog’larning ortida, Samarqandning sirtida, O’zjan yurtida Qoraxon va Sarixon deganlar o’tdi. Qoraxon podsholik qilib, Sarixon vazirlik qilib, ikkavi do’st bo’lib, bir-birining gapini yerda qoldirmay, hurmat-izzat bilan, katta davlat

bilan, noz-ne'mat bilan yashab, oshlarini oshab, ikkavi ham qirqdan qirq beshga qadam qo'yib qoldilar. Ammo bularning hech narsadan kami yo'q bo'lsa ham, dunyoda bir tirnoqqa zor edilar.

Kunlardan bir kun Sarixon podshohning oldiga kirsa, Qoraxon zor-zor yig'lab o'tiribdi. Shunda Sarixon Qoraxon podshohga qarab: "Ey shohim, mamlakatning to'rt tarafi hukmingizda bo'lsa, soyangizdan qush qo'rqib uchib o'tolmasa... sizga qayerdan sitam o'tdi" deb so'raydi.⁴⁰

Shunda Qoraxon ham do'sti, ham vaziri Sarixonga qarab:

Bog'im so'lganga yig'layman,
Bargi to'lganga yig'layman.
Yigitligim asta-sekin
Ado bo'lganga yig'layman.
Meva solmas ar-ar terak,
Men naylayin, kuydi yurak.
Bu shavkatlar nima kerak?
Men ana shunga yig'layman.
Suvday oqib umrim o'tar,
Bir kun ajal ilgim tutar,
Bir merosxo'r bo'lmagan so'ng,
Baxti yurtim qo'ldan ketar.
Men ana shunga yig'layman.
Dunyoda qolmaydi otim
Bo'lmagan so'ng zurriyotim.
Dashtda quyun to'zg'iganday,
O'lsam, qurur ismim, zotim.
Men ana shunga yig'layman, —⁴¹

deb xafa bo'ladi.

⁴⁰ Tohir va Zuhra. T., 1974, 7-bet.

⁴¹ Tohir va Zuhra. T., 1974, 9-bet.

Sarixon ham Qoraxonga farzand dog'ida kuyganligini aytib, unga sabr-toqat va farzand tilaydi, “Yig'lamang, shohim, men yig'lay!”– deydi. So'ng ikkisi ko'ngillarining chigilini yozish uchun ovga chiqib ketadilar. Qoraxon Sarixonga:

Og'zingga moy, Sarixon,
Qani endi, jo'rajon,
Farzand ko'rib bizlar ham
Bo'lsak edi bearmon.
Qizli bo'lsak birimiz,
Ulli bo'lsak birimiz,
Quda bo'lsak ikkimiz,
Boshqa yo'qdir tirimiz.
Shohid bo'lg'in Sarixon,
Niyat qildim shuni men.
Bir ul, bir qiz bizlardan,
Paydo bo'lgan kuni men.
Eli xalqni jiyayin,
Bori xalqqa iyayin,
Qiz otini zuhra deb,
O'g'lin Tohir qo'yayin.
Yo'qdan ilhom bo'ldima...
Shu gap keldi dilima.
Dilim qaynab, Sarixon,
Kelib qo'ndi tilima.
Ikkovimizdan boshqaga,
Shu niyatni aytmaylik.
Va'damiz shu, Sarixon,
Shundan aslo qaytmayik, — ⁴²

deb va'dalashdilar.

⁴² Tohir va Zuhra. T., 1974, 12-bet.

Bu “belquda”likka kiradi. Keyin esa Tohir va Zuhra tug’lgach, ularni bir-biriga atab qo’yadilar. Bu odat esa “beshik kerti” deyilishini biz oldingi boblarda ko’rib o’tdik.

“Varqa bilan Gulshoh” dostonida ham shunday odat qayd etiladi. Buni quyidagi parchadan ham bilishimiz mumkin: “Shuytib, Shoh Hasan bilan Shoh Husan Shaybon qabilasida biri podshoh, biri el og’asi bo’lib yashayverdi. Oydan oy, yildan yil o’tib, Shoh Hasan bilan Shoh Husan qirqdan oshib, qarilikning isib qoldilar. Lekin shungacha na Shoh Hasanning va na Shoh Husanning xotinlari birorta ham farzand ko’rmadilar. Kunlardan bir kun Shoh Hasan bilan Shoh Husan dunyodan befarzand o’tib ketayotganlarini aytishib, dardlashib, “Agar xudo ikkalamizga farzand bersa, og’il bo’lsa do’st bo’lib, qiz bo’lsa dugona bo’lib yurar edilar. Agar birovi o’g’il, birovi qiz bo’lsa, ikkovimiz quda bo’lar edik”,– deyishdilar. Shundan keyin ham oradan bir necha oylar o’tib, Shoh Hasanning xotini Fotima bir qiz, Shoh Husanning xotini Zaynab bir og’il tug’di. “Har ikkisining ham tug’ilishi bir kunda bo’ldi”, deb, Shoh Hasan bilan Shoh Husanning oldiga suyunchixo’r yugurib kelib, bittadan ikkita otin suyunchiga olib ketdi. Oradan yetti kun o’tgandan keyin har ikki chaqaloqni beshikka solib, Shoh Hasanning qiziga Gulshoh, Shoh Husanning o’g’liga Varqa deb ism qo’yadilar. Gulshoh bilan Varqa yoshligidan bir-birlarini yaxshi ko’rib, do’stlashib ketaberdilar”.⁴³

Ushbu dostonida ham “belqudalik” marosimi qayd etilgan.

“Vomiq va Uzro” dostonida ham sovchilik bilan bog’liq marosimlar mavjud. Chunonchi, Uzro otasi Zaydga shunday savol beradi:

Ajal yetgan banda o’lmay qolurmi?

Farzandiga kishi jabr solurmi?

U kishi ovulim, zotim so’radi,

Bo’sh qizni so’ragan ayb bo’lurmi?

Mazgiliga yetar kim ot qistasa,

Aybmi birov sovchi qo’ymoq istasa?

⁴³ Varqa bilan Gulshoh. T., 1974, 127-128-betlar.

Mazkur dostonda ham “bo’sh qiz”, “unashtirilmagan”, “boshi ochiq” ma’nosida qo’llanilgan.

Dostonlardagi sovchilik bilan bog’liq udumlarga ko’plab misollar keltirishimiz mumkin. Chunonchi, “Ravshan” dostonidagi Go’ro’g’lining o’zi sovchi bo’lib borganligi haqidagi misolni olib ko’raylik.

“Kunlardan bir kun Go’ro’g’libek parilar bilan o’tirib edi. Ravshanbek ayni o’n uch yoshda, zarli qalpoq boshida, yuzi yarqirab, sochi tirqirab eshikdan salom berib bordi. Go’ro’g’libek Ravshanbekni ko’rib dimog’i chog’ bo’lib, parilarga qarab aytdi: “Ho’ parilar, mening ko’nglinga bir gap keldi, sizlarga aytsam, sizlar nima deysizlar. Mening o’zimga shu ish xush keldi, sizlarga ham xush kelar. Men Avazxon bilan Hasanxonni quda qilayin, o’zim sovchi bo’layin, bugun borayin. Mol ham yotga ketmasin, bola ham yotga ketmasin”, – dedi.

Unda parilar: “Juda yaxshi bo’ladi. Bizlarga ham bu so’zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapni”, – deyishib, quvonishib qoldi.

Gulnor ko’p suluv: yaxshi suratli, shirin so’zli, quralay ko’zli, tor biqin, o’rta bo’yli, uzun o’yli, keng ko’krak, xushxayol, zehni tez, serfahm qiz edi. Ravshanbek uning bilan maktabda birga o’qiganda, ko’zining ostiga bosib qo’yar edi.

Go’ro’g’libekning bu so’zi Ravshanbekka ham yoqib ketdi. Ichida aytdi: “Qizini bersa yaxshi: bu qizini bermas, bobomning so’zini sindirar”, – deb qo’ydi.

Go’ro’g’libek parilar bilan maslahat qilib, Avazxon o’g’lining qoshiga sovchi bo’lib bora berdi. Shunda Ravshanbek qoralab bobosining orqasidan bora berdi.

Avazxon qarasa, Go’ro’g’libek otasi kelayotibdi. Shunda otasining oldiga chiqib, mehmonxonaga tushirib “Xush keldingiz” deb dasturxon tashlab, noz-u ne’matni to’kib, qand ustiga novvot, shira ustiga sharbat, ziyofat ustiga ziyofat qilib turdi. Go’ro’g’libek o’g’lidan dimog’i chog’ bo’lib, kayfi to’g’ri bo’lib o’tirdi”.⁴⁴

⁴⁴ Ergash Jumanbulbul o’g’li. Dostonlar. I jild, T., 1971, 54-55-betlar.

So'ngra Avazxon otasidan "Yo'l bo'lsin" deb so'radi. Go'ro'g'libek Avazxonga qarab shunday dedi:

Chorhokim emasman, Chambilgadir xon,

Azamatga berdim kark teri qalqon.

Bir sababli mehmon keldimm o'rdangga,

Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, Avazxon.

Men o'lsam seniki Chambil elatim,

Harna borim, bari arkon davlatim,

Bir sababli mehmon keldim uyingga,

Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin farzandim.

Qaladan qalampir yuklar qalachi,

Har gal isli bo'lar tog'ning og'ochi.

Yo'l bo'lsa o'zingdan bo'lsin farzandim,

Vallamat kelibdi o'zingga sovchi.

Taroqman taralar qizlarning sochi,

Shohlar olar eldan zakot ham boji.

Yo'l bo'lsa, o'zingdan bo'lsin, Avazxon,

Vallamat kelibdi o'zingga sovchi.

Otang keldi sening so'zing olmoqqa,

Ko'nglidagi sirni bayon qilmoqqa,

Shul sababli mehmon keldim uyingga:

Hasanman o'zingni quda qilmoqqa.

Yetti yoshda olib keldim o'zingni,

Qo'limdan ko'p yeding osh-u tuzimni,

Otang keldi, bolam, o'zingga sovchi,

Ravshanga ber Gulanorday qizingni!

Otangning, farzandim, tilin olinglar,

Hasanman ikkoving quda bo'linglar,

Ravshanga ber Gulanorday qizingni,

Yovmitning eliga to'ylar beringlar!⁴⁵

Ushbu parcha shuni ko'rsatib turibdiki, taomilga ko'ra Go'ro'g'libekning o'zi Avazxonning qiziga sovchi bo'lib borgan. Bundan shuni ham anglash mumkinki, sovchilik qadimiy udumlarimizdandir.

Sovchilik udumi "Qunduz bilan Yulduz" dostonida ham mavjud. Go'ro'g'lining tog'asi Ahmad Sardorning qizi Bo'tako'zga oshiq bo'lib qoladi. Lekin Bo'tako'z Avazni o'ziga teng ko'rmaydi. Chunki Avazni hali ham ko'pchilik qul deb bilar edi. Bundan o'ksingan Avaz qaddi bukilib, ko'zidan yoshi to'kilib: "Hay attang, bo'lmas ekan, qul otim qolmas ekan. Kishining elida Bol Avaz atanib yurganimdan, o'z yurtimda Avaz podachi atanib yurganim yaxshi emasmi",— deb o'yladi, o'zicha maslahatni topdi: "Otamga borayin, shu Bo'tako'zni olib ber deyayin. Olib bersa, nuran a'lonur, Chambilda yurayin. Ahmad Sardor qizini bermasa, hayt deb Xunxorga ketayin",— deb yig'lay-yig'lay o'rdaga keldi.

Go'ro'g'li qarasa, Bol Avazning ko'zidan durri g'altonday yosh to'kilib kelayotibdi. Avazxonni bu ahvolda ko'rib, aytdi: "Ey Avazxon o'g'lim, jon-u dilim, o'lsam merosxo'rim, menday otangning oyog'i uzangida turganda senga kimning tili-so'zi tegdi, nega xafa bo'lib yig'lading?"

Demak, sovchilik o'zbek xalqi hayotida doimiy yashab kelayotgan milliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, o'zbek xalqi o'zining boy madaniy merosiga ega bo'lgan millatdir. Millatning shakllanishida kishilar hayotidagi ma'lum odat va an'analar, ularning yashayotgan muhiti, ya'ni turmush tarzi muayyan til va madaniyatining shakllanishida shart-sharoit bo'lib xizmat qilgan. Shu asosda har bir millat uzoq vaqt davomida shakllanib, sayqal topgan, takomillashgan barqaror urf-odatlariga, marosimlariga, rasm-rusumlariga, an'analariga ega bo'lganlar.

Lekin millatning urf-odatlari, turmush tarzini saqlab qolish va rivojlantirish uchun, albatta, ma'lum shart-sharoitlar lozim bo'lgan. Bu shart-sharoitni, albatta,

⁴⁵ Ergash Jumanbulbul o'g'li. Dostonlar. I jild. T., 1971, 56-57-betlar.

birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, siyosiy hokimiyat belgilagan.

Har bir millat asrlar davomida o'zining saqlanib, yana ham takomillashib kelgan, nisbatan turg'un, barqaror milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'alarini, o'zlariga xos va mos bo'lgan turmush tarzini anglab oladi va shu millat mentalitetini, o'ziga xosligini saqlab qoladi, qadriyatlarni shakllantiradi.

Boshqacha qilib aytganda, milliy o'zlikni anglash – bu har bir millatning, etnik guruhning o'z tarixiy taraqqiyoti yo'lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, yetti pushti kim bo'lganligini va ularning o'z xalqi va millati taraqqiyotiga, qolaversa, insoniyat taraqqiyotiga qo'shilgan xizmatlarini bilib olish jarayonidir.

Milliy urf-odatlarni, an'analarni va qadriyatlarni anglash milliy g'ururni ham rivojlantiradi. Milliy g'urur – millatning o'zligini, o'z urf-odatlarini, an'analari, moddiy va ma'naviy merosini anglash va chuqur his qilish asosida o'z milatining umuminsoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyati, qo'shgan hissasidan, salohiyatidan faxrlanish demakdir. Shunday ekan, biz o'z madaniy merosimiz, xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, xalq dostonlari va ularda tasvirlangan urf-odat va marosimlarimizni yanada chuqurroq o'rganishimiz, ularni qadrlashimiz zarur.

Xulosa

Vatanimizning tarixini o'rganish va bu tarixni to'g'ri yoritish sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning ulug'ligi va olamshumul ahamiyati fanning bundan keyingi rivoji yo'lga yangidan-yangi muhim vazifalarni qo'ymoqda.

Birgina o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidan olimlar to'plagan o'nlab dostonlar, yuzlab ertaklar, minglab maqollar va qo'shiqlarni dastlabki o'rganish, bu asarlarni ijod etgan xalqning necha ming yillik tarixiy hayoti, ijtimoiy ongi, kurashi va umidini ko'rsatib beradigan ajoyib badiiy qomus ekanligini isbotlaydi. Mirzacho'lni ikkinchi Farg'onaga – oq oltin, ipak va shirin mevalar koniga aylantirish uchun jonbozlik qilayotgan bugungi davr Farhodining ajoyib mehnatini kuylagan qo'shiqlardan Behustun qoyalarini kesib, sut buloqlari ochgan Farhod zamonasigacha, vatan mudofaasi yo'lida jon berib, bosqinchi Kayxusravni maqtovli qo'shini bilan o'linga mahkum etgan O'rta Osiyo malikasining ta'rif-tavsiflarida, tulporini ma'bud sifatida ko'rsatuvchi, Quyoshni ota, Oyni ona deb tasavvur etgan davrlar tushunchasiga olib boradigan folklor materiallarining sirlarini, qiymat va ahamiyatlarini ochib berish juda katta chuqur ilmiy tekshirishlarni talab qiladi.

Mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan qisqa muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy, san'at yodgorliklarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardan umumbashariy va milliy g'oyalarni zamonga xizmat qildirgan holda o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga yetkazish doimiy e'tiborda bo'ldi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, istiqlol tufayli respublikamizda xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi. Prezidentimiz xalqning milliy qadriyatlarini, go'zal urf-odatlarini tiklash uchun uning uzoq asrlar davomida shakllangan boy og'zaki badiiy ijodiga, ezgulik, mehr-muhabbat yo'g'rilgan bayramlariga diqqat-e'tibor qaratish zaruriyatini mustaqillikning

dastlabki kunlaridan uqtirib keldi. Bu bayramlarning xalqqa qaytarilishi, ular bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlar, folkloriy janrlar, qo'shiqlar, afsona-yu rivoyatlar, xalq milliy musiqasi, raqs va teatr san'atini ham tiklashga sababchi bo'ldi.

Istiqlol xalq og'zaki badiiy ijodini, xususan, eposshunoslikni rivojlantirishga, xalq yaratgan ma'naviy-madaniy merosni avvalgidek sinfiylik, partiyaviylik asosida emas, reallikka binoan yozib olish, chop etish va tahlil qilishga imkoniyat yaratgan. "Mahobxorat", "Ramayana", "Illiada", "Odisseya" singari jahon adabiyotining nodir namunalari bilan teng tura oladigan qahramonlik dostonimiz "Alpomish"ga to'g'ri baho berilib, uni to'liq chop etish, yangi variantlarini barhayot baxshilardan yozib olishga yo'l ochildi. Natijada qisqa fursatda "Alpomish" dostonining qashqadaryolik va surxondaryolik kuychilari Qora baxshi Umirov, Xushvaqt baxshi Mardonqulov, Adunazar baxshi Rahmatullayev, Shoberdi baxshi Boltayevdan yangi variantlari yozib olindi. Tadqiqotlar bu vohalarda "Alpomish" dostonini bitta asar bo'lmay, balki turkum sifatida shakllanganligiga guvoh bo'ldik. Chori baxshi Umirov, Qahhor baxshi Qodir o'g'lidan "Yodgor", "Beva Barchin", "Yo'lchibek" /Xudoyor/, "Shomurod" singari Alpomishning o'g'illari va do'sti haqida dostonlar ilk bora qog'ozga tushdi. "Alpomish" dostonining akademik nashri va yana to'rt varianti, "Alpomishnoma" nomli ikki kitobdan iborat, qariyb 70 bosma taboq hajmdagi monografiya, risolalar, o'nlab ilmiy maqolalar yaratildi. "Alpomish" dostonini bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz, or-nomusimiz, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi.

Nafaqat "Alpomish" dostoni, balki jami xalq og'zaki ijodi durdonalari insoniyatni olamni badiiy tafakkur etishi va unga poetik fikr yordamida yondashishining ilk mevalaridir. Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ongning shakli hisoblangan folklor insoniyatning ma'naviy-estetik rivojlanishi uchun eng muhim manba bo'lib kelmoqda. Chunki insoniyatning kelajak to'g'risidagi orzu-istaklari,

hayot kechirish tarzidagi barcha muammolari va ularni badiiy tafakkur qilish xalq og'zaki ijodida har doim o'z ifodasini topib kelgan.

Xalq milliy g'oyalariga asoslangan demokratik jamiyat barpo qilishda o'zbek folklor qadriyatlar, insonlarning umumiy manfaatlariga doimo mos keluvchi eng muhim omil hisoblanadi. Binobarin, istiqlol mafkurasini yaratishdek mas'uliyatli bir paytda xalq og'zaki ijodining boy merosi o'sib kelayotgan yoshlarda milliy ruhni uyg'otish, xalq va vatanga munosib farzand bo'lib yetishida ma'naviyat vositalaridan biridir.

Har bir xalqning tarixi, madaniyati, ma'naviyat va mafkurasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini xalq ijodi, uning marosimi, qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham yurtboshimiz xalq ijodi, qadriyatlarini o'rganish, ularning unutilayotganlarini tiklash, xalqimizga qaytarishning ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlamoqda. Bular siz va bizning oldimizga badiiy yuksak obidalarni, qadriyat, marosim, umuman xalq og'zaki ijodi namunalarini chuqur, har taraflama o'rganish vazifasini qo'yadi. Biz olib borgan ishning dolzarbligi ana shulardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, xalq dostonlari qadimgi ijod mahsulidir. Ulardagi sujet, motiv, obrazlar silsilasining ildizlari eng qadimgi ibtidoiy davrlarda yashagan ajdodlarimizning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Dostonlarda ifoda etilgan ba'zi motiv va qavmlarning urf-odat va marosimlari, yashash tarzi, ma'naviy madaniyati xususida boy ma'lumotlar beradi. Dostonlarda xalqimiz urf-odatlari, dunyoqarashi, orzu-istak, intilishlari mujassam bo'lib, qadimiy marosimlar asosida yuzaga kelgan an'anaviy marosimlar, motivlar qadim zamonlardagi ajdodlarimizning dunyoqarashini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, olovga sig'inish bilan bog'liq rasm-rusm, udum va odatlardan tortib, hozirga qadar saqlanib qolgan ayrim marosimlargacha u yoki bu motiv shaklida dostonlar sujeti tizimidan o'rin olgan. Jamoa ijod mahsuli sanalgan

dostonlarda hayot haqiqati, ajdodlarimiz turmush tarzi, orzu-istaklari qadimda yaratilgan udumlarning badiiy talqini vositasida tasvirlanadi.

Dostonlardagi qahramonlarning o'z sevgilisi, vafodorini qidirib o'zga yurtga o'tlanishi, safar davomida turli to'siq, qiyinchiliklarni yengib o'tib, barcha shartlarni bajarib, maqsadga erishish motivlari ham xalqimizning qadimiy oilaviy-maishiy marosimlari, qabilachilik davri udumlari zaminida yaratilgan.

Ana shunday udumlardan biri sovchilik bilan bog'liq marosimdir. O'zbek xalq dostonlarida xalqimizning juda qadimiy urf-odatlar va udumlari, chunonchi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni beshik kerti yo'li bilan bolalik chog'idanoq unashtirib qo'yish odati ham ko'plab ertak va dostonlarda o'z ifodasini topgan. Qadimda beshik, belanchakdagi bola qabila oqsoqollari tomonidan unashtirilgan. Muayyan sehrli ma'noga ega bo'lgan unashuvni buzishga hech kimning haqqi bo'lmagan. "Alpomish", "Tohir va Zuhra" dostonlaridagi qudalashish tufayli sujet murakkablashib borgan.

Xalq orasida "etak yirtar", "beshik kerti", "quloq tishlalar" deb yuritiladigan bu odat ko'pincha qiz farzand tug'ilgan oilada o'tkaziladigan "Beshik to'yi" marosimida amalga oshirilgan.

Masalan, Andijon viloyatida o'g'il farzand ko'rgan kishi qizaloq beshigining biror joyini pichog'i bilan kertib qo'ygan va shu bilan bu qizaloq yoshligidan "egalik bo'lgan" hisoblangan.

Surxon vohasida esa ikki oila o'z farzandlari katta bo'lganida quda bo'lishni niyat qilsalar, bola ilk bor beshikka belanayotganda o'g'il tomon qizga marjon taqib yoki ko'ylak kiydirib qo'ygan. O'g'il bolaning otasi yoki bobosi pichog'i bilan qizaloq beshigining qubbasidan ozgina kertib qo'ygan va shu bilan bu beshik egasi o'sha bolaning "beshik kerti"si deb yuritilgan. Qashqadaryo viloyati hududida istiqomat qilgan o'zbek-qarluqlar shevasida bu udum "beshik karda" deyilgan.

Surxon vohasining Denov tumanida bu odat “etak yirtar” deyilgan. Bola tug’ilganda kelin qilishni niyat qilgan oila qiz farzand tug’ilgan xonadonga kelib chaqaloqqa kiygizilgan ko’ylakning etagini irim qilib yirtib qo’ygan. O’sha qiz bola voyaga yetganda etagini yirtgan oila tomonidan “el belgisi” deb nomlangan marosim o’tkazilgan.

Qashqadaryo viloyatida ikkala go’dak ko’ylagining orqa etaklari birga ushlab turilib, uchlari tugilgan va ota-onalar ana shu tugunni bolalar balog’atga yetgunga qadar saqlaganlar.

Qadimda aholi orasida agarda yigit tomon birorta qizni yoqtirib qolsa, o’sha qiz istiqomat qiladigan xonadonga sovchi yubortirgan va qizning boshiga ro’mol tashlattirgan.

“Sovchi” so’zining etimologiyasiga asos bo’lgan leksema Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk” asarida “sov”/ “sav” shaklida berilgan bo’lib, uning ma’nosi “qissa”, “qadimgi voqeadan xabar berish”, “hikoya”, “xat”, “xabar”, “yangiliklarni yetkazuvchi” tarzida izohlangan. Shuningdek, Mahmud Koshg’ariy “savchi”/sovchi/ so’zi “kelin va kuyov orasida xat-xabar eltuvchi kishi” ma’nosida qo’llanishini ham qayd qilgan.

Sovchilik qilish bilan bog’liq udumlar Andijon viloyatida “kovush yirtar”, “eshik supurdi”, “ro’mol tashladi” deb yuritiladi.

Sovchilik udumi o’zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” dostonida o’z ifodasini topgan. Barchinga sovchi bo’lib borgan Surhayil kampir shunday deb nurojaat qiladi:

Qozonda qaynagan shirboz go’shmidi,
Shu qizingni agar boshi bo’shmidi?
Boshi bo’shmi deyin, sendan so’rayin,
Kelin qilib boshiga ro’mol o’rayin,
Qorajonga atashtirib borayin,

Mehmon bo'lib biror guzarim tushdi,
Itin ko'p taladi, ko'p nasham uchdi,
Shul qizingni ko'rib ko'nglim xushdir.
Albatta qizingni bul boshi bo'shdir.
Boybicha, eshitgin aytgan so'zimdi,
Ko'ngling bo'lib, xafa qilma o'zingdi,
Kelin qilib ketay sening qizingdi,
Sening qizing Qorajonga lozimdir.⁴⁶

Biz tadqiqotimizda shuningdek, “Ravshan”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Tohir va Zuhra”, “Varqa bilan Gulshoh”, “Vomiq va Uzro” kabi xalq dostonlaridagi sovchilik bilan bog'liq marosimlar haqida ham so'z yuritdik va ularni tahlilga tortdik. Xalqimiz yaratgan bu durdona asarlarda xalqimizning dunyoqarashi, mehnati, kurashi, ruhiyati, orzu-umidi, intilishi, oila, elga, yurtga muhabbati, qadriyati tarixi o'z aksini topgan. O'zbek xalq dostonlaridagi qadimiy marosimlar bilan aloqador motivlarni genetik jihatdan o'rganish muhim nazariy ahamiyatga ega.

⁴⁶ Alpomish. O'zbek xalq ijodi. T., 1979, 37-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I

- I.1. Karimov I.A. Milliy davlatchilik, istiqlool mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. –T., 1999.
- I.2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.2.–T., 1996.
- I.3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va yashash – davr talabi. –T.5.–T., 1997.
- I.4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. –T., 1998.
- I.5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Muloqot, 1998, 5-son.
- I.6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

II

- II.1. Снесарев Г.П. Реликты домусльманских верований и обрядов узбеков Хорезма. –М.: Наука, 1969.
- II.2. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. –T.: Fan, 1974.
- II.3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. –T., 2007.
- II.4. Davlatov S. Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosimlari folklori. Filol. fanlari nomz.diss.avtoref. –T., 1996.
- II.5. Ismailov X. O'zbek to'ylari. –T.:O'zbekiston, 1992.
- II.6. Qayumov A. Boysun aholisining an'anaviy turmush tarzi: o'tmishda va bugun/ Boysun tarixi an'analari. –T., 2005.
- II.7. Quronboyeva N.R. Xorazm to'y qo'shiqlari. Filol.fanlari nomz. diss.avtoreferat. –T., 1998.

II.8. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. –T.: Fan, 1986.

II.9. Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasida o'zbeklarning nikoh to'yi marosimlari. Tarix fanlari nomz.diss. –T., 2002.

II.10. Xudayqulova L., Jo'rayev M. Marosimnoma. /O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma'lumot/. –T., 2008.

II.11. Xudayqulova L. Surxon vohasida bola tug'ilishi va beshik davri marosimlari folklori. /O'zbek folklorshunosligi masalalari/, 1-kitob. –T., 2006.

III

III.1. Ashirov A., Rahmonov N., Pidayev SH., Nozilov D., Etnografik tadqiqotlarni jadallashtirish – dolzarb masaladir. –T., O'zbek tili va adabiyoti, 2009, 5-son.

III.2. Ergashev A. Istiqlol va folklor. Muloqot, 2001, 4-son.

III.3. Qosimov N. Xalq ijodiyoti sarchashmalari. Muloqot, 2001, 6-son.

IV

IV.1. Alpomish. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T., 1986.

IV.2. Boychechak. Bolalar folklori. –T., 1984.

IV.3. Dostonlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T., 1986.

IV.4. Tohir va Zuhra. Dostonlar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T., 1974.

